

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
Milliy universiteti

# O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

*(ma'ruzalar matni)*

TOSHDO'TAU



0000003398

Toshkent 2009

## KIRISH

*Fan masalalarining dolzarbligi.* O'zbek adabiyoti tarixi fani ikki muhim bosqichga ajratib o'rganiladi. Birinchi bosqichda millatni ma'rifatga da'vat etishdan o'z mustaqilligi uchun kurashmoqqacha bo'lgan masalalarni kun tartibiga qo'gan o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti namunalarini o'rganish dolzarbdir. Binobarin, bu davr adabiyoti yosh avlodni Vatan va millatga muhabbat, milliy mustaqillikni mustahkamlash ruhida tarbiyalashi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu masalalar "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ko'zda tutilganki, shuning o'ziyoq milliy uyg'onish davri adabiyotini o'rganishning muhimligini belgilaydi. Ikkinchi bosqichda esa XX asrning 40- yillaridan tortib to hozirgi adabiy jarayonga qadar bo'lgan davr adabiyoti o'rganiladi. O'zbek adabiyoti bosib o'tgan yo'lni o'rganish, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari to'risida tasavvurga ega bo'lish fanning muhimligini belgilaydi.

*Fanning ahamiyati.* Milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash millat taqdirini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mustamlaka sharoitida bu masalalarning kun tartibiga qo'yilishi adabiyotning millat oynasi sifatidagi vazifasiga uyg'un keladi. Shu jihatdan, millat ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda milliy uyg'onish adabiyotini o'rganishning ahamiyati alohida ekanini ta'kidlash kerak.

*Fanni o'qitishning maqsadi* - bakalavrlik darajasida adabiyotdan yuqori bilim va makakaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash. Talabalarga o'zbek adabiyoti tarixi fanining asosiy xususiyatlari, bosqichlari, va namoyandalari ijodiy merosi to'g'risida bilim berish.

### *Fanni o'qitishning vazifalari:*

XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan to bugungi o'zbek adabiyotining taraqqiyot qonuniyatlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida tasavvur berish, adib va shoirlar biografiyasi bilan yaqindan tanishtirish, ularning asarlarini o'qib, tahlil qilish.

*Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi* – O'zbek adabiyoti tarixi adabiyot nazariyasi kabi yondosh fanlar qatori, tarix, falsafa, estetika fanlari bilan ham aloqadordir.

19895  
2296/1



## KOMIL XORAZMIY (1825-1897)

Muhammadniyoz Komil 1825 yili Xivada madrasa mudarrisi Abdulla oxund oilasida tug'ildi. U dastlab eski maktabda, so'ngra Xivadagi madrasalarning birida tahsil oladi. Otasi vafot etgach, oilada iqtisodiy tanglik yuzaga keladi. Shu tufayli Komil o'qishni bir muddat kechiktirib, savdogar bobosi Xo'jash mahram xizmatida bo'ladi. Keyinroq uning moddiy yordami tufayli o'qishini nihoyasiga etkazadi.

U madrasa tolibi bo'lgan davridayoq shoir sifatida tanilgan edi. Komilning yaxshi ijodkor ekanligidan xabar topgan Xiva xoni Sayyid Muhammadxon uni saroyga taklif etadi va mirzalik lavozimiga tayinlaydi. Muhammad Rahimxon Soniy hukmdorligi davrida esa u saroyda mirzaboshi bo'lib ishlaydi.

Rusiya imperiyasi 1873 yili Xiva xonligini bosib olish uchun yurish boshlaydi. Bu paytda butun Dashti Qipchoq (Turkiston, Avliyoota, Chimkent), Toshkent, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax va Samarqand shafqatsizlarcha qonga botirib, bosib olingan edi. Xiva xonligi saroyidagi amaldorlar bu siyosiy vaziyatga ikki xil munosabatda bo'ldilar. Devonbegi Matmurod boshliq birinchi guruh jang qilish tarafdori edilar. Mirzaboshi Komil va qator xonning maslahatchilari esa kuchlar nisbatini e'tiborga olib, murosa yo'lini tutish, shu tariqa qisman bo'lsa-da, huquq va xonlikni saqlab qolish fikrida edilar. Lekin jang qilish ma'qul ko'rildi. Keyingi voqealar Komil haq ekanligini ko'rsatdi. Negaki, rus qo'shini xon askarlari umrida ko'rmagan bahaybat to'plarda ularni ayovsiz o'qqa tutdi. Xon poytaxtni tashlab chiqishga majbur bo'lgan edi. Shunday qilib, murosa yo'li tanladi. 1873 yilning 12 avgutida Xiva yaqinidagi Gandimiyon qishlog'ida Rusiya bilan Xiva xonligi o'rtasida shartnoma tuziladi. Bu tarixga "Gandimiyon shartnomasi" nomi bilan kirdi. Ozroq muddatga bo'lsa-da, mahalliy idora saqlandi. Komilning bu harakati uning o'tkir siyosatdon sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ldi.

Komil uch marta Moskva, Peterburg shaharlarida bo'lgan.

1873 yil voqealaridan so'ng surgunga jo'natilgan Matmurod devonbegining qaytishi, Komilning mirzaboshilik lavozimidan tushirilishi unga qattiq ta'sir qildi. Natijada u o'tkir ko'z kasalligiga chalinadi. 1896-97 yillarda ko'zini davolatish ucun Toshkentga keladi. Dardiga davo topmay, **1897 yil 72 yoshida** vafot etadi.

**Komil haqida** Ogahiyning “Gulshani Davlat”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Ahmad Tabibiyning “Majmuatush-shuaro” kabi asarlarida ma’lumotlar uchraydi.

1909 yilda “**Devoni Mavlono Komil maa tavorixi shohoni Xorazm**” nomi bilan uning devoni Toshkentda nashr qilinadi.

Komil 1891 yilning 28 avgustidan 13 sentabrigacha valiahd shahzoda Asfandiyorga yamroh sifatida Toshkentda bo’ladi. 5 sentabrda shoimi N. P. Ostroumov o’z uyiga mehmonga taklif etadi. Uning “**Iki sho’x**” g’azali aynan shu erda yoziladi. N. P. Ostroumovning ikki qizi mehmonga evropa va sharq musiqa namunalaridan fortepyano jo’rligida ijro etishadi. Bundan ta’sirlangan Komil yuqoridagi g’azalini yozadi. G’azal “Turkiston viloyatining gazetisi”da e’lon qilinadi.

*Solurdi g’amza xadangin kamona ul iki sho’x,  
Mani ul o’qg’a qilurlar nishona ul iki sho’x...*

Aynan shu safardan ta’sirlanib u yana “**Dar bayoni ta’rifi va tavsifi Toshkand**” qasidasini ham yozadi. Asar “Turkiston viloyatining gazetisi”da 1894 yil 8 oktyabrda chop etilgan.

U Xorazm kuylarini notaga ko’chirgan. Asar xalq orasida “**Tanbur notasi**” nomi bilan mashhur. Bundan tashqari “Murabbai Komil”, “Peshravi Komil” kabi kuylar muallifi hamdir.

Shuningdek, u Barxurdor bin Mahmud turkman Farohiyning “Mahbubul-qulub” va Husayn Voiz Koshifiyning o’g’li Faxriddin Ali Safiyning “Latoyifut-tavoyif” (“Turli toifalarning latifalari”) asarlarini tarjima qilgan. She’rlari hali-hanuz xalq ardog’ida.

*Qaysi falak burjini mehri pur anvorisan,  
Qaysi sadaf durjini gavhari shahvorisan,  
Qaysi Xo’tan ohusi, nofai totorisan,  
Qaysi chamanzorni lolavu gulnorisan,  
So’yla mang’a, ey sanam, kimni sevar yorisan?*



## MUQIMIY (1850-1903)

Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850 yil Qo'qon shahridagi Bekvachcha mahallasida novvoy oilasida tug'ildi. Otasi Mirzaxo'ja asli Toshkentlik, onasi Bibioysha Xo'jandlik bo'lgan. Ular to'rt qiz va bir o'g'il ko'rganlar.

Muhammad Aminxo'janing onasi Bibioysha adabiyot va san'atni sevuvchi ayollardan bo'lgan. Yosh Muhammad Aminxo'janing adabiyotga alohida mehr qo'yishida onasining xizmatlari beqiyosdir.

Muhammad Aminxo'ja dastlab eski maktabda tahsil oladi. 1864 yilda esa Qo'qondagi «Hokim oyim» madrasasiga o'qishga kiradi. 1867 yili Bibioysha vafot etadi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Mirzaxo'ja Ziyodabibi ismli ayolga uylanadi. Muhammad Aminxo'ja 1872-1873 yillarda Qo'qon madrasasini bitirib, Buxoroga yo'l oladi. 1876 yilgacha Buxoro madrasalarining birida tahsil oladi. Qo'qonga qaytgach, uni Sanambibi isli qizga uylantirib qo'yadilar.

1877 yili Muhammad Aminxo'ja Qo'qondagi yer qurilishi mahkamasiga mirzalik vazifasiga ishga kiradi. Bu yerdagi turli hiylanayranglarni ko'rib xafsalasi pir bo'lgan Muqimiy u yerdan ishdan ketadi. Bu yerdagi turli kirdikorlarni fosh etuvchi «Tanobchilar» hajviyasini yaratadi.

Keyinalik u Sirdaryo bo'yidagi Oqjar paromiga pattachi bo'lib ishga kiradi. U yerda ham uzoq ishlay olmaydi. Odamlarning ma'naviyatsizligi, ahvolning og'irligi tufayli pattachilikni yig'ishtiradi. O'zini tamoman ijodga bag'ishlaydi.

Xuddi ijtimoiy sharoitda qiynalgani kabi oilada ham turli qiynichiliklarga duch keladi. Sanambibi bilan uzoq yashay olmaydi. 1879 yili u xotini bilan ajrashadi. Sanambibi o'g'li Akbarxo'jani onasi Ziyodabibiga qoldirib, boshqaga turmushga chiqib ketadi. Ko'p o'tmay, otasi Mirzaxo'ja ham vafot etadi.

Muqimiy 1887-1888 yillarda Toshkentga keladi. Almaiy, Nodim Namangoniy kabi ijodkorlar bilan tanishadi.

1890 yili otadan qolgan hovlini sotib, madrasa hujrasiga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. Xattotlik bilan kun kechiradi.

Muqimiy 1905 yilning 25 mayida vafot etadi.

Uning ijodiy merosi 10 ming misrani tashkil etadi. Uning murabba'lari yigirmadan ortiq, deyarli hammasi ishqiy mavzuda. Ohangdor va ravon. Masalan:

*Emdi sandek jono, jonon qaydadur,  
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,  
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.*

**Hajviyoti** «**Tanobchilar**» hajviyasi yer qurilishi mahkamasida ishlagan davrida yozilgan. Unda Sulton Alixo'ja va Hakimjon ismli tanobchilar haqida so'z boradi.

*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,  
Arz etayin emdi yozib nomalar –*

deb boshlanadi asar. Unda poraxo'r, maqtanchoq tanobchilarning, umuman o'sha davrdagi mahalliy mansabdorlar va xalqning umumiy ahvoli xususida so'z boradi.

«**Saylov**» hajviyasi – yuzboshi, mingboshi, qozi lavozimlariga saylov o'tkazilishi, bu saylov porxo'rlikka keng eshik ochib bergani xususida.

«**To'yi Iqonbachcha**» - to'y hangomasiga bag'ishlangan. Toshkentdagi bir boyning Iqondagi xizmatkori to'y qilmoqchi bo'lib, kerilib yurganida, boy to'y qilishni yig'ishtirishni buyuradi. Falon pul sarflab to'y beraman deb yurgan gumashta chuv tushadi. Hamma joyni bekilib, yashirincha to'y qiladi. To'yga atigi 33 tanga sarf etadi. Mahalladan bor-yo'g'i yetti odam chaqiriladi.

*O'choq ustida gar yo'talsa birov,  
Er edi yelkasiga katta kasov...*

«**Hajvi Viktorboy**», «**Hajvi Viktor**», «**Voqeoti Viktor**» - she'rlari Viktor Dimirtovich Axmatov haqida. U 1891 yili Moskvadan arzon mol keltirib beraman deb, bir qancha sodda o'zbeklarning pulini olib, juftakni rostlagan. Bu voqea butun Farg'onaga shov-shuv bo'lgan.

«**Dar shikoyati Laxtin**» - unda ham yulg'ich savdogar haqida so'z boradi.

«**Maskovchi boy ta'rifida**» - uquvsiz boyning raqobatga dosh berolmay sinishi to'g'risida yozilgan.

«**Voqelai ko'r Ashurboy hoji**» - qarib quyilmagan, hajga borib kelsa ham, axloqi tuzalmagan bir boyning qilmishini fosh etadi.

**Sayohatnomalari.** Qo'qon – Farg'ona, Qo'qon – Shohimardon, Qo'qon – Isfara sayohatlarini qamrab oladi. Har uch sayohatnoma yaxlit

bir asar shaklida bo'lib, to'rtliklardan tarkib topgan. Jami 244 misra. Hammasi rajazi murabba'i solim vaznida yozilgan.

*Faryodkim, garduni dun,*

*Aylar yurak-bag'rimni xun.*

*Charx anga kajraftor ekan,*

*Ko'rdiki bir ahli funun*

**Asarlari:** «Navbahor», «Aroba», «Toleim», «Kim desun», «Zulm ila qahru g'azab», «Podshoh yo'qlatsalar nogoh, gado deb axtaring» (Muqimiyning zamon, turmush adolatsizliklaridan, taqdiridan shikoyat mazmunidagi hasbi hol g'azali), «To'y», «Dar shikoyati Laxtin» (yulg'ich, uchar hajv qilingan), «Voqeai ko'r Ashurboy hoji» kabi she'rlari. «Tanobchilar», «Moskovchi boy ta'rifida» kabi satiralari, «Sayohatnoma» (rajazi murabba'i solim vaznida yozilgan, jami 244 misra) asari, «To'yi Iqonbachcha» hajviyasi, «Hajvi Viktor boy», «Hajvi Viktor» kabi muxammaslari, o'z davri uchun yangi bo'lgan «Ta'rifi pech», «Saylov» she'rlari, ma'lum bir munosabat bilan yozgan «Bezgak», «Ta'rifi Favti Noibi Toshkandiy» kabi asarlari va boshq.



## FURQAT

(1859 - 1909)

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat - milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri. U shoir va adib, adabiyotshunos va muarrix, elshunos va mutarjim sifatida o'zidan boy ma'naviy meros qoldirdi. Shuningdek, Furqat zamonasining mashhur xattotlaridan edi.

Furqat 1859 yili Qo'qon shahrida tug'ildi. Otasi Xolmuhammad zamonasining o'qimishli, ziyoli kishilaridan bo'lgan. Zokirjonni otasi 7 yoshida Muhamad Olim ismli maktabdorga shogirdlikka beradi. 8 yoshida "Mantiqut-tayr"ni o'qiydi. 9 yoshida Navoiyning "Chor devon"ini o'qishga kirishadi. Mulla Qambarali ismli kishidan xattotlik sirlarini o'rganadi.

1878 yili tog'asining da'vati bilan uning yoniga, yangi Marg'longa borib, bir muddat savdo ishlari bilan band bo'ladi. Keyin Qo'qonga qaytadi. Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir kabi shoirlar muhitida qizg'in ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi. Furqatning shoir sifatidagi kamoloti ayni shu davrda boshlangan.

Toshkentda ikki yilga yaqin istiqomat qilgan shoir 1891 yili chet ellarga chiqib ketishga majbur bo'ladi. Turkiya, Yunoniston, Bolgariya, Arab mamlakatlari va Hindistonda bo'lib, Xitoyning Shinjong viloyatiga qarashli Yorkent shahrida turg'un bo'lib qoladi. U 1909 yili 50 yoshida vafot etdi.

Shoir lirikasining mavzular olami juda rang-barang. Ijodiy merosining salmoqli qismi g'azallar bo'lib, ularning soni 200 atrofida. Dunyoviy muhabbat, ijtimoiy-falsafiy o'ylar aks etgan, inson erki va g'urbat ohanglari ifodalangan, diniy ma'rifatparvarlikka alohida e'tibor qaratilgan asarlari bunga yorqin dalil.

Uning o'z boshidan kechirganlari haqidagi "Ahvolot" (ba'zi tadqiqotlarda "Sarguzashtnoma", "Furqatnoma") asari "Turkiston viloyatining gazetisi"da (1891 yilgi o'n uch soni) chop etilgan.

Xitoy tilidagi manbalar asosida yozilgan "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy" nasriy asari ham mazmun- mohiyati ham badiiyati jihatdan qimmatlidir.

Uning "Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mandek" satri bilan boshlanuvchi musaddasi mashhurdir.

*Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mandek,  
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mandek...*



## ISHOQXON IBRAT (1862-1937)

Ishoqxon 1862 yil Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida tug'ildi. Uning ota-onalari Junaydullaxo'ja va Huribibi davrining o'qimishli kishilari edilar. Ishoqxon dastlab, hijo usuliga asoslangan mahalla maktabida o'qidi. Ammo savodini onasi Huribibi qo'lida chiqaradi. Onasi maktabdor bo'lib, qizlarga quruq yodlatish emas, balki yozish va xusnixatni ham o'rgatar edi.

Ishoqxon boshlang'ich ta'limni egallab bo'lgach, Qo'qonga o'qishga yuboradilar. U 19 asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga o'qishga kiradi. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyondalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo'ladi.

1886 yili madrasani tugatib, To'raqo'rg'onga qaytgan Ibrat qishloqda maktab ochadi.



1887 yili 25 yoshida onasini Makkaga olib borish uchun otlanadi. Biroq Vatanga qaytish onasiga nasib etmaydi. Huribibi o'pka shamollashi kasalligi bilan og'rib, Jidda shahrida vafot etadi. Ishoqxon onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab safarini davom ettiradi. Shu bilan birga Istanbul, Sofiya, Rim kabi shaharlarda ham bo'ldi. 1892-1896 yillarda Bombey va Kalkuttada yashadi. Zamondoshi Ibrohim Davronning yozishicha, Ibrat turk, fors, hind, rus tillarini mukammal egallagan, frantsuz, arman yozuvida xat yozish ilmini ham egallagan ekan.

Ishoqxon to'ra Ibrat 1896 yili Hindistondan Birma orqali Hitoyga, so'ngra Koshg'arga o'tadi va Namanganga qaytib keladi. Shu yili olti tilni o'z ichiga olgan «Lug'ati sitta al sina» (Olti tilli lug'at) nomli asarini yozadi. Asar 1901 yil Toshkentda Ilin bosmaxonasida chop etiladi.

Ibrat 1907 yil o'z uyida yangi usuli savtiya maktabini ochadi.

U 1907 yili Orenburgga boradi va Rizo Faxriddinning «S'ho'ro» jurnali faoliyati bilan tanishadi. Litografik mashina sotib oladi va «Matbaai Ishoqiya» nomi bilan nashriyot ochadi. 1908 yilda esa «Kutubxonai Ishoqiya» nomli kutubxona tashkil etadi.

Ibrat iste'dodli shoir hamdir. U o'zbek, fors va arab tillarida erkin ijod qilgan. O'z she'rlarining kichik qismini 1909 yili o'z matbaasida «Ilmi Ibrat» nomi bilan nashr ettiradi.

Uning «Sahar vakti chaman ichra» radifli g'azali tahsinga sazovardir:

*O'shal bulbul qilar afg'on, sahar vaqti chaman ichra,  
Qo'nar gul deb tikan uzra, sahar vaqti chaman ichra.*

*Qilar bag'rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,  
Bo'lur gul zavqidin qurbon, sahar vaqti chaman ichra.*

*O'shal bulbul bo'lur dog'lar, chamanni gasht etib bog'lar,  
Qizil gulni tilab yig'lar, sahar vaqti chaman ichra...*

Ishoqxon Ibrat atoqli pedagog, tilshunos, tarixshunos olim, sayyoh, o'tkir didli xattot va rassom hamdir. Uning «Lug'ati sitta alsina» va jahon yozuvlari tarixiga bag'ishlangan «Jome'ul xutut» («Yozuvlar majmuasi») asarlari muhim ahamiyatga ega.

Ishoqxon Ibrat o'z davrining yirik muarrixi sifatida «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat», «Mezonuz-zamon» ilmiy asarlarini yaratdi.

Ibrat hayotining so'nggi yillari ancha tahlikali o'tdi. Minglab o'zbek ziyolilarining yostig'ini quritgan qatag'onning eng dahshatli kezlari – 1937 yilning ilk bahorida Ishoqxon Ibrat ham qamoqqa olindi. 75 yoshni qoralagan nuroniy shoir – ma'rifatparvar hibsonaning ham jismoniy, ham ruhiy azoblariga bardosh bera olmadi. Uning sudi ham bo'lmadi, sho'rolar qamoqxonasida ikki oy yotib hayot bilan vidolashdi.



### **MAHMUDXO'JA BEHBUDIY** (1875-1918)

Buyuk ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yili Samarqand shahrida muftiy oilasida dunyoga keldi. Ziyolilar oilasidagi muhit undagi adabiyotga, siyosatga, ma'rifatga bo'lgan qiziqishini tezroq ro'yobga chiqishiga yetakladi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga o'z ta'sirigi o'tkazmay iloji yo'q edi. Keyinchalik bu haqda u o'z maqolalaridan birida otasi ta'lim bergan «Hidoya» (Islom huquqiga sharhlar) asarining uning taqdirida muhim rol o'ynaganligini bejiz qayd etmaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Ro'znoma va oypomalardan jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganishga kirishib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug'ullana boshlaydi. 1902 yilda Makkaga borib, xo'ja va mufti unvonlariga ega bo'lib qaytadi. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, Ovro'po madaniyati bilan ham qiziqadi. O'sha davrdagi Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jarida va ro'znomalar bilan hamkorlik qiladi. Uning qator maqolalari ham mazkur ro'znoma va oynomalarda chiqa boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalarning targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turardi.

Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo'lgan Kadetlar partiyasining a'zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta'siri katta bo'ladi. 1910 yillarga kelib, o'lkamizda «Sho'roi Islomiy», «Ulamo», «Adolat», «Yosh buxoroliklar» kabi firqalar paydo bo'ladi. 1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda «Samarqand» ro'znomasi, «Oyna» jaridasi chiqishida jonbozlik ko'rsatadi. U 1914 yilda Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o'quv qo'llanmalari keltiradi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to'siqlarga uchrab, «jadidchilik» rahnamosi, daxriy deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay, tatar mutafakkiri Ismoil Gasprinlining ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab-quvvatlab, o'z o'lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi, ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga kiradi. U bir qator jahon tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan. Behbudiy adib sifatida o'zining «Padarkush» dramasi yaratgan. Unda turkistonlik yoshlarni Ovro'po ilmgohlarida o'qitishni targ'ib qilgan. Mazkur asar o'z davrida A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», Mirmuhsin Fikriyning «Befarزند Ochildiboy», Hamza Hakimzodaning «Yangi saodat» kabi asarlarining yaratilishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Hatto u Amerikaning Kaliforniya dorifununida tarjima ham qilgan.

Bundan tashqari, Behbudiy o'zbek va tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» (1903 yil, «Qisqacha umumiy jug'rofiya»), «Kitobul atfol» (1904 yil, «Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari tarixi islom» (1904 yil, «Islom qisqacha tarixi»), «Amaliyoti islom» (1905 yil, «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» (1908 yil) kabi darsliklar, kitoblar yozgan. Uning maqolalari 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqqiy», «Hurshid», «Shuxrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston », «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so'z», «Tarjimon», «Sho'ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyina» kabi ro'znoma va oynomalarda chop etilgan.

Albatta, Behbudiy qozonayotgan bunday shuhrat hokim sinflar va amaldorlarning g'ashiga tega boshlaydi. Uni Buxorodagi inqilobiy kuchlarga xayrixohlikda ayblab, Said Olimxon tomonidan 1918 yilda Qarshida qatl qilinadi. Qarshi shahri 20—30 yillarda Behbudiy nomi bilan atalib kelinadi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1956 yilga kelib oqlanadi. Hozirgi kunda u qoldirgan rang-barang adabiy-madaniy meros o'z xalqi

xizmatiga kirmoqda.Xullas, S. Ayniy yozganidek: «Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o'zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma'rifat uchun kurashga chorlab keldi».

## ABDULLA AVLONIY (1878-1934)



Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy 1878 yil Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U eski maktabda ta'lim oldi. U o'z tarjimai holida yozishicha: “12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjimon” gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim”. Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ulandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tibdagi maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim –tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Abdulla Avloniy maktablar uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallimim (1912)”, “Tarix”, “Turki gulistoni va axloq” (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan, 1895-yillarda ijodiy faoliyatni boshlagan Avloniy “Qobil”, “Shuhrat”, “Hijron”, “Avloniy”, “Surayyo”, “Abul fayz”, “Indamas” tahalluslari bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajimli dramatik asarlar (1900-1917) yaratdi. Shoir o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilar va kishilarni bilimga, marifatga chaqirar edi.

*Maktab misni tillo qilur,  
Maktab sizni mullo qilur.*

Muallif o'z fikrini xilma xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday tasmielni keltiradi. Ayrim kishilar o'z hovli-joylarini, mol-mulklarini sotib, Makkaga ziyoratga borishadi. Hatto shularning ham aksari yana o'z vatanlariga qaytib keladilar. «Buning sababi, ya'ni

bularni tortub keturgon quvvat o'z vatanlarini tuproqlarini mehru muhabbatidur ...» deydi.

Shoirning «Maktab gulustoni» (T.,1916) ga kirgan she'rlarida bu fikrlar fikrlar davom ettirilgan.

*Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,  
Har kim sening qadri bilmas – aqli pasdur, - deb boshlanur edi.*

Abdulla Avloniy 1917-yilgacha mahalliy halq vakil-laridan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda “Shuhrat”, “Osiyo” kabi gazetalarni tashkil etadi. U “Advokatlik osonmi?”, “Ikki muhabbat”, “To'y”, “Laylo va majnun”, “O'liklar” kabi dramatik asarlarida jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojiali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarni fosh etadi. Abdulla Avloniy shoir sifatida o'nlab, yuzlab she'rlar bitgan. Ular xoh eski urf-odatlar haqida bo'ladimi xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo'ladimi, hamma-hammasida inson va tarbiya, axloqiy go'zallik va ma'naviy boylik haqida kuylaydi. Shuning uchun ham uning she'rlarida xalq didaktikasi bilan yangi zamon pedagogikasi uyg'unlashib ketadi. Abdulla Avloniy o'zbek xalqi maorifi, ma'daniyati, ma'rifati bilan bir qatorda qo'shni afg'on xalqi ijtimoiy - siyosiy hayotida hayotida ham 20-yillarda muhim rol o'ynagan. U malum muddat Afg'oniston xalq ma'orifi vaziri, so'ng Sho'rolar ittifoqining Afg'onistondagi konsuli elchisi vazifalarida xizmat qilgan. A. Avloniy 1920-1930 yillarda respublikamiz ro'znoma va oynomalarida qator maqolalari bilan faol qatnashadi. Avloniy O'рта Osiyo Davlat univarsitetida dars bersh bilan birga, qator adabiyot darsliklarining muallifi bo'lgan. U 1934 yili 56 yoshida vafot etadi.



### MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA (1869-1937)

Muhammadsharif So'fizoda 1869 yilning 29 yanvarida Namangan viloyati, Chust tumanida hunarmand-kosib oilasida tug'ilgan. Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik, charx tortish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Onasi Zaynab xola xohishiga ko'ra u qo'shnisi Manzura otindan xat-savod o'rganadi, eski maktablarda ta'lim oladi. U Hofiz, Bedil, Alisher Navoiy, Muqimiy va Furqat kabi allomalar ijodini chuqur o'zlashtirib,

she'rlar mashq qila boshlaydi. Turkistonda chiqadigan «Turkiston viloyatining gazetisi» kabi Qozon, Orenburg va Boqchasaroyda chiqadigan ro'znoma, oynomalar bilan qiziqadi. Boku va Tiflisda chop etilgan ozor tilidagi asarlarni mutolaa qiladi.

1893—1898 yillarda u Qo'qonda yashab, Muqimiy, Furqat ta'sirida «Vahshiy» taxallusi bilan hajviy asarlar yaratadi. Ayniqsa, uning «Dakaning», «Bedanang», «Ayting bu so'zimni», «O'pay», «Beg'ubor dardu olam» kabi hajviy va lirik g'azallari e'tiborga loyiq edi. Biroq hali Muqimiy hajviyasi zarbidan qutulib ulgurmagan zamona hokimlari yosh Muhammadsharifning keskin tanqidiga qarshi hujum boshlaydilar. Oqibatda u 1899 yili Qo'qondan Chustga qaytib keladi. Ikki yil o'tgach, uni amir-amaldorlar «ul beadab va bad aslni» dahriylikda ayblab, qatl etishga hukm chiqaradilar.

O'zining yozishicha, «so'ng Chustdan qochib, Mir viloyatiga tafakkur qilib, muddati 14 yil har mamlakatda yurub» («Turkiston viloyatining gazetisi», 1914, 10-son) umr kechiradi. Xuddi shu 1900—1914 yillar So'fizoda dunyoqarashida muhim bosqich hisoblanadi. Avval Bokuga borib, Jalil Dulizoda, Sobir Tohirzoda, Muhammad Hodi kabi ozarbayjon adabiyotining taraqqiyparvar vakillari bilan tanishadi. So'ng Arabiston shaharlari, Hindiston va Turkiya mamlakatlarida oddiy mehnatkash xalq hayotini ko'radi. 1910-1913 yillarda Qo'ng'irotda muallimlik qiladi, ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlarini yozib, Boku va Orenburgda chiqadigan ro'znoma va oynomalarda tez-tez ko'rina boshlaydi. Ayniqsa, uning mahoratidan darak beruvchi «O'zbek xonimiga», «Xonimlar isminda», «Vatan», «Muslimalar» asarlari e'tiborli edi.

1913 yilda Chustga qaytib kelib, yetim maktablari ochadi va unda muallimlik qiladi. Dunyoviy fanlarni yengil va yangi usulda o'rgatishga bel bog'laydi. Ayni chog'da ayrim shariat peshvolarini, boy-amaldorlarni o'tkir hajviy tig' bilan savalaydi. Bunga chiday olmagan hokim sinf vakillari uni halok etish payiga tushadilar. Buni sezgan shoir So'fizoda 1915 yili yana xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo'ladi.

*Quvdi meni johillar o'shandog' vatanimdan,*

*Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan, —*

deb, e'tiqodi, irodasini yana bir bor tiklab oladi. Bu safar davomida u Hindistonda, so'ng Afg'onistonda o'qituvchilik bilan mashg'ul bo'ladi. 1918 yilda Afg'oniston maorif vazirining o'rinbosari sifatida Turkistonga afg'on vakolatxonasi tilmochi bo'lib tayinlanadi. 1918

yil so'ngida u afg'on arboblari bilan O'zbekistonga qaytib keladi va shu yerda umrinin oxirigacha xizmat etadi.

Yana munofiqlar qarshiligiga uchrab, olti oyga qamaladi. So'fizoda butun umr qiyinchiliklar ko'rsa ham, o'z xalqiga xizmat etishdan zarracha to'xtamadi. Uning asarlari «Qizil O'zbekiston», «Mushtum», «Farg'ona» kabi ro'znoma va oynomalarda tez-tez bosilib turdi.

1925 yil 13 avgustda «Farg'ona» gazetasida «Xushchaqchuq qalamlar» sarlavhasi ostida uning bir qator hajviy she'rlari bosildi. Uning «Haqiqatdan ko'z yumganlar», «Qalaysizlar?», «Saylovga» kabi she'rlarida o'sha suronli yillar tahlikalari ustida mulohaza yuritiladi. 1934 yilga kelib, «Bayram nashidalari» nomli dostoni nashr etiladi. Unga o'zbek adabiyoti oldidagi xizmatlari uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan bir qatorda 1926 yil 27 fevralda O'zbekiston xalq shoiri degan yuksak unvon beriladi. U 1937 yilda og'ir betoblikdan vafot etadi.



## ABDURAUUF FITRAT (1886-1938)

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat madaniyatimiz tarixiga shoir va nosir, dramaturg va publisist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san'atshunos va jamoat arbobi sifatida kiradi. U 1886 yili Buxoroda ziyoli oilisida tug'ilgan. Buxoro, Istanbul madrasalari va

dorilfununlarida o'qigan. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o'zlashtirgan. Adbning otasi savdo ishlari bilan shug'illangan bo'lib, 1918 yilgacha Qashqarda turib qolgan. U asosan, onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo'lib u tufayli Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Zebuniso, Uvayyid kabi ulkan shoirlarning g'azallaridan habardor bo'lgan. Fitrat 1909 yili Turkiyaga o'qishga borib, 1913 yilgacha Istanbul dorilfununida taxall ko'rgan. Turkiyada tashkil topgan "Buxoro ta'limi maorifi" uyushmasida faollik ko'rsatgan. Uning ilk to'plami 1911 yida "Sayhn" ("Chorlov") nomi bilan chop etilgan. "Sayohi hindi", "Munozara" kabi asarlari xam shu yillarda Turkiyada nashr etilgan.

1909-1913 yillarda Turkiya dorilfununida o'qiyotganida jadidchilik g'oyalari bilan tanishib, shu g'oyalar bilan sug'orilgan asarlar yozgan. U Turkiyadagi taxsili davrida o'ziga Fitrat (zukko, dono, bilimdon) deb taxallus olgan.

Fitrat ijodi Turkistonda inqilobiy xarakterli kuchaygan davrga to'g'ri keladi. U 1913 yili fors-tojik tilida yaratgan "Munozara" nomli asarida xalqini zulm botqog'idan qutqarib, "Najot yo'li" ni izlaganligini tasvirlaydi. Bu davrda Ovro'pa fani va madaniyatini targ'ib qilish ham Fitrat ma'rifatparvarligining muhim yo'nalishini tashkil etgan.

Fitrat 1917 yili fevral inqilobidan keyin "Hurriyat" gazetasini tashkil etib, unda xalqni istiqloq uchun kurashga da'vat etuvchi she'r va maqolalarini e'lon qilgan. Uning "Hurriyat" gazetasida bosilgan "Yurt qayg'us" nomli she'r va sochmalarida Turkistonning hurligi uchun kurashga bel bog'lagan lirik qahramonning "Men sen uchun tug'ildim, sen uchun yasharman, sening uchun o'larman, ey turning muqaddas o'chog'i!" degan da'vati baralla eshutiladi. Uning "Qon", "Begijon", "Temur sag'anasi", "O'g'izxon", "Abu Muslim", "Xind ixtilochilari", "Chin sevish" kabi dramalarida milliy mustaqillik uchun kurash mavzuyi tabiiy ifodasini topgan. 1922 yili nashr etilgan "O'zbek yosh shoirlari" to'plamida Cho'lpon, Elbek she'rlari bilan birga Fitratning she'riy asarlari xam ilk bor o'zbek o'quvchisiga xavola etilgan. U mazkur to'plamga kirgan "Mirrix yulduziga", "Behbudiyning sag'anasini izlab", "Sharq", "Shoir" kabi she'rlarida millatparvar va vatanparvarlik pozitsiyasida qat'iy turganini yana bir bor namoyish etib, oktyabrdan keyingi voqealarning g'ayriinsoniy mohiyatini fosh etadi. Shoir ijodi va dunyoqarashidagi ana shu hol keyin xam susaymay, u "Abulfayzxon", "Arslon" va "Vose" qo'zg'aloni", "Shaytonning tangriga isyoni" kabi dramalarini yaratadi. Uning "Qiyomat" kabi xikoyalarda diniy fanatizm ijtimoiy taraqqiyotiga to'siq bo'lgan kuch sifatida fosh etiladi. Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida xam bir qancha asarlar yaratgan. Jumladan, "Adabiyot qoidalari", "Eski o'zbek adabiyoti namunalari", "Arzu xaqida" kabi ilmiy kuzatuvlari o'zbek adabiyotshunoslik fanining shakillanishida muxim rol o'ynadi. Shuningdek, uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil haqidagi tadqiqotlari adabiyotimiz tarixini o'rganishda muxim manba bo'lib xizmat qiladi. U Axmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi o'ndan ortiq mumtoz adabiyot vakillari xaqida xam maqolalar yozgan. Fitrat ayni paytda tashkilotchilik faoliyati bilan xam shug'illanib, 1921-1923 yillarda Buxoro Xalq Jumxuriyatida maorif xalq noziri bo'lib xizmat qilgan. 1923-1924 yillarda esa frunzechilar tomonidan quvg'in qilingan shoir Moskvadagi Sharq tillari institutida ilmiy faoliyat bilan shug'illangan. Fitratning o'zbek tili grammatikasiga oid darsliklari 1925-1930 yillarda besh marta chop etilgan. Tilshunoslik va



adabiyotshunoslik bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun Fitratga o'zbek olimlari orasida birinchilardan bo'lib professor unvoni berilgan. Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari yozuvchilar bilan birga otib tashlangan. 1991 yil 25 sentyabrda Fitratga o'zbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi.

## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889-1929)



XX asr o'zbek adabiyotining oyoqqa turishi, har tomonlama rivojida Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Avloniylar kabi Hamza Hakimzoda Niyoziyning ham beqiyos o'rni bor. Chunki, tilga olingan zamondoshlari qato-ri, Hamza millat erki, uning ma'rifati, ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarini yo'lida umrini va ijodini bag'ishladi. Bor-yo'g'i qirq yil yashagan bu fidoyi ijodkordan 5 jildlik adabiy meros qolganining o'ziyoq, Hamza shaxsiyati va uning ijodiy ishga naqadar jiddiy yondashgani to'g'risida yorqin lasavvur beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilning 6-martida Qo'qon shahrida tabib oilasida tavallud topgan. Uning otasi Ibn Yamin Xolboy o'g'li davrining mashhur tabiblaridan bo'lgani tufayli yozuvchi o'z taxallusiga Hakimzoda nomini qo'shgandi. Adibning onasi Jahonbibi ham tabobatdan yaxshigina xabardor ayol edi.


Hamza 1896— 1908-yillarda tengdoshlari qatori eski maktab va madrasalarda ta'lim oladi, arab, fors, turk tilini o'rganadi. 1909-yildan esa Kogon shahridagi matbaa korxonasida ishlay boshlaydi. Hamzaning keyingi mehnat faoliyati o'lkamizning turli hududlarida, har xil vazifalarda kechgan. U Qo'qondagi rus-tuzem inaktabida o'qituvchi, «Kengash» va «Hurriyat» jurnallarida muharar (1917), Farg'ona viloyati madaniy-maorif bo'limida xodim (1918), teatr truppasida rejissor (1919), muhtojlar uchun ochilgan niaktabda mudir (1920), Buxorodagi teatr truppasida rahbar (1921), Xorazm viloyatidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarda mudir (1921— 1924) vazifalarida ishlaydi, xalqning turmush sharoiti, o'y-fikrlari bilan yaqindan tanishadi.

U 1926-yilda birinchilardan bo'lib O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'ladi va o'sha yildan e'tiboran erkin ijod bilan shug'ullanishga o'tadi. Qo'qon adabiy muhiti ta'sirida o'sgan Hamza juda

yoshligidan she'rlar mashq qilishga kirishgandi. U 1905-yildan boshlab yozgan 214 ta she'rini jamlab, 1914-yilda «Devoni Nihoniy» nomli qo'lyozma devon tuzadi. Demak, Hamza dastlabki asarlarida «Nihoniy»— pinhon, yashiringan degan taxallusni qo'lagan. «Devoni Nihoniy»dan ishqiy g'azallar bilan birga mazlum xalq ahvoliga achinish, uning og'irini yengil qilish yo'lidagi yosh qalb urinishlari ham o'z aksini topgandi. Hamza o'lka ma'rifatparvarlik harakatining old jabhalarida faoliyat ko'rsatdi. U kambag'al oila farzandlari, yetim bolalar uchun Qo'qon va Marg'ilonda maktablar tashkil qildi, bu maktablarga qo'llanma sifatida o'qitish uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» (1914), «Qiroat kitobi» (1915) singari darsliklar yozib berdi. Zamonasining mashhur nashrlari — «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» singari gazetalarda Hamzaning ma'rifatparvarlik ruhidagi o'nlab publitsistik maqolalari chop etildi. Mazkur maqolalarda adib hayotning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarini dadil ko'tarib chiqdi, ularni hal etish yo'llarini izladi. Jumladan, ilg'or Yevropa xalqlari dunyoviy ilm-fanga katta ahamiyat qaratishi evaziga turmushning barcha jabhalarida fuqarolari hayotini yengillatish, jahon bozorlarini tobora ko'proq egallash yo'lidan ketayotgan bir paytda, Turkiston xalqlari diniy jaholat, ma'rifatsizlik, fikriy tanballik botqog'iga botib yotganini kuyinib yozdi.

Hamzaning 1915— 1919-yillarda chop etilgan «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» dan («Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul» singari sakkizta turkumdan tashkil topgan) joy olgan asarlarida ham yuqorida tilga olingan mavzular endi she'riy shaklda ifoda topdi. Aksariyat qismi savodsiz bo'lgan ommaga o'z qarashlarining tezroq singishini o'ylagan shoir bu she'rlarni qadimiy qo'shiqlar vaznida yaratgandi. Sizga yaxshi ma'lumki, o'zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy sanalib, uning 1922— 1925-yillar oralig'ida yaratgan «O'tkan kunlar» romani dastlabki to'laqonli o'zbek romani deb e'tirof etilgan. Hamza ham bu sohada o'z kuchini sinab ko'rgan adib hisoblanadi. U 1914— 1915-yillarda «Yangi saodat», «Uchrashuv» singari «milliy roman» lar yaratgan. Garchi bu asarlarning sujeti, kompozitsion qurilishi anchagina sodda, qahramonlari ham soni, ham badiiy barkamolligi jihatidan salmoqli bo'hna-da, yosh adibning o'sha yillariyoq romandek mas'uliyatli janrga cho'chimay qo'l urgani e'tiborlidir. Hamza jaholatga botgan ommani uyg'otish, sergak torttirish, uni o'z kelajagi uchun qayg'u cheka oladigan millatga aylantirish yo'lida zamondosh ziyolilar qatori tinimsiz harakat qildi. Yuqorida

19895  
22267



ta'kidlanganidek, bu davrda Turkiston xalqlarining aksariyat qismi xat-savodi bo'lmaganidan qiynalar, bu ommaga kitob, gazeta va jurnallar orqaligina ta'sir etishning samarasi oz edi. Bu ehtiyoj adiblarni sahna asarlari yaratishga, o'qitibgina emas, ko'rsatib ham xaiqqa ma'rifat berishga da'vat etdi. Xuddi shu harakat orqasidan Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush», Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», Hamzaning «O'ch» (1914), «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari» (1915), «Ilm hidoyati», «Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi», «Ochlik qurbonlari» (1916) singari o'nlab dramalari sahna yuzini ko'rди.Yil o'tgan sayin Hamza o'z asarlarining mavzu va mohiyat doirasini kengaytirib, jiddiy muammolarni o'rtaga qo'ygan dramatik asarlar yarata boshladi. Uning «Muxtoriyat yoki avtonomiya» (1917), «Kim to'g'ri», «Tuhmatchilar jazosi», «Boy ila xizmatchi» (1918), «Loshmon fojiasi» (1916— 1918-yillar, uch bo'limli), «Farg'ona fojiasi» (1919— 1920-yillar, to'rt bo'limli) singari asarlarida davrning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalari dadil ko'tarib chiqilgan edi.

Hamza dramaturgiyasining gultoji hisoblangan «Maysaraning ishi» komediyasi va «Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi» dramasi (1926) esa milliy sahnemizning o'lmas durdonalari bo'lib qoldi. Afsuski, sho'ro davlatining manfur siyosati Hamza taqdirida ham qonli iz qoldirdi. Shohimardonda in qurib olgan bir guruh diniy mutaassib kishilarga Hamzaai qarshi qo'ygan sho'ro idoralari, mohiyatan, bir hamla bilan ikki raqibni yo'q qilishga erishdi. Ya'ni, hukumat Hamzani johil kimsalarga ro'para qildi, ular esa «Shohimardonday aziz joyni oyoqosti qilmoqchi, ayollarimizning yuzini ochmoqchi», degan uydirmalar bilan olomoni Hamzaga qarshi gijgijladi. Natijada, sho'ro davlati avval Hamzaning johil kimsalar tomonidan toshbo'ron qilib o'ldirilishiga (1929-yilning 18-avgustida), keyin esa «sho'ro shoirining qotili» sifatida dindorlarni Shohimardondan «supurib tashlanishi»ga erishdi.

Sho'ro adabiyotshunosligi uzoq yillar davomida Hamza shaxsi va ijodini ham bir yoqlama talqin etdi, uni «sotsialistik realizm metodining o'zbek adabiyotidagi asoschisi» degan yasama sifatlar bilan «bezab» keldi. Shunday ekan, XX asr o'zbek she'riyati, nasri, dramaturgiyasi, musiqa va teatr san'ati, ijaaorifi rivojiga ulkan hissa qo'sligan bu ijodkor merosi bilan sho'ro davri hamzashunosligi yo'l qo'ygan xatoliklarni aralashtirib bo'lmaydi.

## ABDULHAMID CHO'LPON (1897-1938)



*Haq yo'li, albatta, bir o'tilg'usi ...*

Cho'lpon taxallusi bilan she'riyatning ajoyib namunalarini ijod qilgan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijonda hunarmand dehqon oilasida dunyoga kelgan. U avval eski maktabda, keyinchalik Andijon va Toshkentdagi madrasalarda o'qiydi.

16-17 yoshlaridayoq yaxshigina ma'lumotga ega bo'lgan Abdulhamid ijod qila boshlaydi. Otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Andijonning obro'li kishilaridan bo'lib, savdogarchilik bilan shug'ullanar edi. U o'z zamonasining o'qimishli kishilaridan hisoblanar, o'zi ham she'rlar yozib turardi. O'sha davrda bo'lajak shoirning otasi o'zi yozgan hajviy she'rlaridan devon tuzganligi haqida ma'lumot bor. Cho'lponning onasi Oysha aya garchi savodli bo'lmasa-da, o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki u xalq qo'shiqlari va ertaklarining bitmas xazinasidan yaxshigina bahramand bo'lgan. Ota o'g'lini rus-tuzem maktabida ham o'qitdi. Bo'lajak shoir o'zbek, turk, fors, arab, rus tillarini puxta biladigan o'qimishli kishi bo'lib yetishdi. Kuchli iste'dod, o'qish – o'rganish tufayli Abdulhamidning she'rlari 16-17 yoshlarida “Turkiston o'lkasi” gazetasida chop etildi. Cho'lponning dastlabki asarlaridayoq bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat yorqin ko'rinib turardi. U xalqni ozod va baxtli ko'rishni istardi. Buning uchun odamlarning jaholat uyqusidan uyg'otish, ma'rifatdan, ilmu fandan bahramand qilish kerak, deb hisoblardi. Ayni paytda rus bosqinchilari millatning ma'rifatli bo'lishiga keng yo'l bermasligini ham bilardi. Erksiz ma'rifatning, ma'rifatsiz esa erkning bo'lmasligi shoirga ayon edi. Shu bois Cho'lpon 1917 – yilning fevralida Rossiyada sodir bo'lgan inqilobga katta umid bilan qarardi. Lekin bu inqilob Turkiston o'lkasiga chin ozodlik bermadi. Chunki ozodlik o'zga kishi yoki tabaqa, yoxud millat tomonidan

beriladigan sadaqa emas, balki kurashlarda qo'lga kiritiladigan ne'matdir. O'sha yilning oktabrida ro'y bergan to'ntarilish esa shoirning so'nggi umidlarini ham so'ndirdi. Milliy zulm ostida ezilayotgan xalqning zabun holini aks ettirish va xalqni bunday holatdan qutqarish istagi Cho'lpon ijodining yo'nalishi bo'lib qoldi. Cho'lpon she'riyati hech kimga o'xshamagan samimiylig, jozibador, ta'sirchanligi, tuyg'ularini ranginligi bilan o'zgalarnikidan ajralib turadigan she'riy olam yarata bildi. Cho'lpon mislsiz she'riy kashfiyotlardan tashqari 1935 – 37 – yillarda yaratilgan “Kecha va Kunduz” nomli birinchi o'zbek roman – diologiya (ikki kitob) ining muallifidir. Romanning 2-kitobi Cho'lpon qamaligandan so'ng yo'q qilgan. 1926-yillarda “Yorqinoy” dramasi yaratildi. Asar badiiy jozibasini jihatidan ham, mavzu nuqtai nazaridan ham hozirgacha o'z ta'sir kuchini yo'qotmay kelmoqda. Cho'lpon tarjimon sifatida Shekspir, Blok, M. Gorkiy, Txokur kabi mashhur adiblar ijodidan qilgan tarjimalari bilan xalqimiz ma'naviyatining rivojiga hissa qo'shdi. Shoirni “millatchi” sifatida 1937-yilning 13-iyulida sevimli shogirdi Usmon Nosirdan 1 kun avval qamoqqa olishdi. Qiynoq, tahqirlardan so'ng 1938-yilning 4-oktabrida Toshkent yaqinidagi xilvat joylarning birida o'zbekning daho shoiri otib tashlandi. O'limga hukm qilgan sud qarori 1938-yilning 5-oktabrida chiqarilgan edi.

Cho'lponning ijodi ancha vaqt o'quvchilardan berkitib kelindi. Cho'lpon o'zbek she'riyatining yorqin siymolaridan edi, shu bois o'tkinchi bulutlar pardasini yirtib tashlab, milliy she'riyatimiz osmonida qayta porlay boshladi.

*Endi har nafasda yana kuyaman,  
Faqat majnun bo'lib elni sevaman.  
Unga hurmat bilan bo'yin egaman,  
Boshimni u uchun dorga qo'yaman.*

Bu haroratli misralar shoir qalamiga mansubdir. “Ko'ngil” she'rida milliy uyg'onishga da'vat, erk, hurriyatga chaqiriq ohanglari barq urib turadi, sodda she'rdir. 1922-yilda yozilgan.

*Ko'ngil, sen bunchalar nega  
Kishanlar birla do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor  
Nechun sen buncha sustlashding?  
Harorat dilni og'ritmas,*

*Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?  
Tiriksan, o'lmagansan  
Senda odam, senda insonsen.  
Kishan kiyma, bo'yin egma,  
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!*

1921-yilda “Xalq” she’rini yozadi. She’rda xalqning o’z haq – huquqini tiklashga qurbi yetishi, har qanday qarshiliklarni yengishi mumkinligini kuyunib aytadi. Tili boshqa-yu, dili boshqa siyosatdonlarni ogohlantiradi.

*Xalq istagi, ozod bo'lsin bu o'lka,  
Ketsin uning boshidagi ko'lanka.  
Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar,  
Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar.  
Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,  
O'z yurtini har narsaga to'q etar...*

“Kuz”, “Men va boshqalar”, “Go’zal” kabi she’rlari barchaning diqqatini o’ziga tortadi. Cho’lpon o’z she’rlarida ko’chimdan unumli foydalanadi. “Buzilgan o’lkaga”, “Binafsha”. Binafsha – shoirning ichki kechinmalari bahoriy ko’katga, yoki nimagadir qaratilgan ko’chim.

Ikki roman muallifi Cho’lpon “Kecha va Kunduz” romanini 1935-1937-yillarda yaratgan. Bu roman o’zbek millatining badiiyatda aks etgan solnomasidir. Romanda aks ettirilgan voqea 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O’zbekistondagi viloyatlardan birida bo’lib o’tadi. Romandagi qahramonlardan birining: “Biz yaqindagina eshon to’poloni bo’lib o’tgan joydan uncha olisda emasmiz” degan so’zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo’zg’aloni bo’lib o’tgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo’lib o’tgan deb aytishimiz mumkin. Bu davr o’zbek xalqining ikki tomonlama zulm ostida ezilgan davri edi. Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to’g’risida o’ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg’uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib

berishga qaratilgan. “Kecha va Kunduz” romaninig markazida Zebi, Akbarali, Miryoqub turadi, ularning o‘zaro munosabatlari, to‘qnashuvlari, taqdirleri roman syujetining asosini tashkil etadi. Cho‘lpon asarning boshidan oxirigacha Zebi xarakteridagi samimiyatni, ochiqlikni eng muhim belgi sifatida ko‘rsatadi. Uning tomirlarida navqironlik jo‘sh uradi, ko‘nglida esa tevarak-atrofnı qurshab olganlarga, dugonalariga, bahorga, hamma-hamma narsaga muhabbat hokim! U hali hayotning achchiq-chuchugini ko‘rmagan. Zebining murg‘ak qalbi dunyoda razolat va qabihlik, yomonlik va yovuzlik borligini sig‘dira olmaydi. Zebi to‘rt devor ichida kishini erksiz qiluvchi havolardan nafas olib ulg‘aydi. U ko‘proq otasidan qo‘rqadi. Otasi Razzoq so‘fi o‘z uyining qabrıstonlar qadar jim-jit bo‘lishini istaydi. Zebini hayotsevar qilgan omıllardan bittasi – uning jarangdor ovozi. Zebida o‘zbek ayollariga xos fazilatlar jamlangan. U poklik, go‘zallik, tozalik va navqironlik timsoli. Akbarali-mingboshi, belida kumush kamar, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Cho‘lpon Akbarali obrazi orqali mustamlaka Turkistondagi idora usulini, to‘ralar va mahalliy amaldorlar o‘rtasidagi munosabatlarnı yaxshi ko‘rsatgan ko‘rsatgan.

Romandagi Miryoqub – ancha murakkab obraz. U aslida savodsiz, gazetalardan bexabar, dunyo ishlariga ko‘p ham qiziqtırmaydigan, rus tilini ham tuzuk-quruq bilmaydi. Shunga qaramay, ishning ko‘zim biladigan o‘ta tadbirkor odam. Shuning uchun “epaq” degan laqab orttırgan. U aralashgan ish bitmay qolmaydi. Pul topish yo‘llarini yaxshi biladi. Miryoqub hayotning ko‘pgina turfa xil voqealariga ro‘para keladi va har gal ularning mag‘zini chaqishga intiladi. Hayot uning qarshisida bir-biridan murakkab jumboqlarnı ko‘ndalang qo‘yadi. miryoqub ularga javob izlaydi. “kecha va kunduz” hayotiyligi va samimiyiligi bilan, mazmunining teranligi bilan, qahramonlar xarakterining butunligi va to‘kisligi bilan umrboqiy asarlar sirasiga mansub. Bu roman bosilib chiqqandan so‘ng, oradan ko‘p o‘tmay Cho‘lpon qamoqqa olinadi. Uning nomini, ijodini targ‘ib etish qat‘iyan man qilinadi. Bu ahvol 1956 – yilgacha davom etadi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so‘ngina Cho‘lpon adabiyotimiz saflariga qaytdi.

## ABDULLA QODIRIY (1894-1938)



Abdulla Qodiriy bor-yo'g'i qirq to'rt yil umr ko'rdi. Shundan atigi yigirma yili qizg'in ijtimoiy faoliyat va badiiy ijodga bag'ishlandi. Shu yigirma yil ham keskin kurashlar, alg'ovdalg'ovlar, ta'qibu tahdidlar ichida o'tdi. Bu zabardast siymo o'zining noyob iste'dodi, mislsiz jasorati bilan shu qisqa davr ichida xalqimiz ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirdi, ko'p Isrlik milliy adabiyotimiz rivojida ulkan burilish yasagan, yangi bosqichni boshlab bergan nodir asarlar yaratdi. Adib «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» asarlari bilan o'zbek romanchiligiga asos soldi. Bu romanlar orqali xalq ilk bor xuddi tiniq ko'zgudagidek o'zini, o'zligini, kuchli va ojiz jihatlarini ko'rdi. Bu romanlar zamonaviy jahon adabiyotining nodir namunalari bilan bir qatorda turadi. Yoozuvchi qalamiga mansub hikoyalar, hajviy, publisistik, adabiy-tanqidiy maqololalar, badiiy tarjimalar XX asr o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib o'rin olgan. Millat, el-yurt qayg'usi bilan yonib yashagan, shu yo'lda qurbon bo'lgan bu alloma millatning faxr-iftixoriga aylandi. Adibning beqiyos ijodiy merosi, shonli va fojiali umr yo'li avlodlar uchun ham ibrat, ham achchiq saboqdir.

Buyuk siymoning hayot va ijod yo'liga bir nazar tashlab o'taylik.

Bo'lg'usi buyuk adib 1894-yil bahorida Toshkentning mashhur Eshonguzar mahallasida Qodir bobo oilasida dunyoga keldi. Adibning otasi ko'pni ko'rgan odam bo'lgan, yigitlik chog'larida xon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865) Toshkent mudofaasida qatnashgan; qariganida savdogarchilik, dehqonchilik bilan kun ko'rgan. Onasi Josiyat bibi (1854-55-1936) Qodir boboga to'rtinchi xotin edi, Abdulla dunyoga kelganida otasi 73-74 yoshlarda bo'lgan. Bu g'aroyib qariya sarguzashtlari adibning qator asarlari, xususan, tarixiy romanlarining tug'ilishida muhim rol o'ynagan.

Abdulla bolaligidayoq zehni o'tkir, o'qish-o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lgan. Ammo oiladagi moddiy muhtojlik tufayli kechikib, 9-10 yoshlarida maktabga boradi, ikki-uch yil eski usulda o'qigach, oiladagi qashshoqlik vajidan bir boyga xizmatchilikka beradilar; xo'jayini uni «rus-tuzem» maktabiga yubordi, maktabni a'lo baholar bilan tugatadi; ikki-uch yil toqichilik va bog' ishlari bilan band bo'ladi,



so'ng Toshkentdagi mashhur Abulqosim madrasasida ta'lim oladi. 1912-yili Rasulmuhammad otliq savdogarga prikazchik bo'lib ishga kiradi; 1914-yili bu ma'rifatparvar odamning qizi Rahbaroyga uylanadi. Abdullaning bundan keyingi ham totuv, ham sertashvish hayoti, faoliyati umr yo'ldoshi Rahbaroy, ikki o'g'il, uch qiz -Nazifa, Habibulla, Adiba, Anisa, Mas'udlar bilan kechdi. Katta o'g'li Habibulla Qodiriy (1919-1987) shifokor, yozuvchi bo'lib yetishdi, «Otam haqida», «Abdulla Qodiriyning so'nggi kunlari» kabi mashhur asarlar muallifi sifatida tanildi.

Adib ijodiy faoliyatining boshlanishi 10-yil laring o'rtalariga to'g'ri keladi. O'sha kezlari «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oyna» kabi gazeta vajumallar bilan tanishib, ularda qatnashish istagi tug'iladi. «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yili aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan «Yangi masjid va maktab» sarlavhali xabar bosilgan. Shu tariqa matbuotda Abdulla Qodiriy nomi paydo bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay «Millatimga», «Ahvolimiz» she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi (1915) chiqdi. Bu asarlar Qodiriyning badiiy ijoddagi dastlabki izlanishlari bo'lib, ular o'sha davming taraqqiyparvar harakati -jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan, jadid adabiyoti ta'sirida yozilgan edi. Ularda Qodiriy qoloq odatlami tanqid ostiga oladi, millatni o'zligini anglashga, yangilikka da'vat etadi. Oradan sal fursat o'tib «Uloqda» hikoyasi (1916) bosildi. Bu hikoya faqat Qodiriyning yutug'i bo'lib qolmay, 10-yillar o'zbek adabiyotidagi yaxshi realistik hikoyaning namunasidir.

Qodiriyning oktabr to'ntarishidan keyingi faoliyati asosan matbuot bilan bog'langan: «Oziq ishlari» gazetasida muharrir, «Ro'sta» gazetasida muxbir, «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq» gazetalarida xodim, «Inqilob», «Kommunist yo'ldoshi» jumallarida sarkotib, xodim bo'lib ishlaydi, u «Mushtum» hajviy jumalining (1923) asoschilaridandir. Qodiriy 1919-25-yillar orasida matbuotda yuzlab maqola, hajviyalar bilan qatnashdi. Qodiriy publisistikasining mavzu- mundariyasi, muammolar doirasi keng; ular orasida hayotdagi xilma-xil illatlarni fosh etuvchi ko'plab maqolalar hamda bir turkum adabiy-tanqidiy ishlar bor. Qodiriyning «Bizda teatru ishining borishi», «Ravot qashqirlari», «O'tkan kunlar»da ham «O'tkan kunlar»da tanqidi ustida ba'zi izohlarda maqolalari 20-yillar o'zbek tanqidchiligining eng yaxshi namunalaridandir. Ularda realistik adabiyotning jiddiy masalalari - haqqoniylik, milliylik, badiiy shakl haqida muhim fikrlar ilgari surilgan. Yoshligidanoq Sharq va G'arb madaniyati, adabiyoti ruhida

tarbiyalangan, arab, fors, rus va turkiy tillarni puxta bilgan adib uchun Dante, Servantes, Gogol, Chexov kabi buyuk so'z ustalari, shuningdek, turk milliy adabiyotining o'sha davrdagi mashhur nasrchilari Yo. Qodiriy, F.Rafiqiy, R.Ashraf, Ya.Kamollar ijodi yaxshi tanish edi. Qodiriyarab adibi Jo'rji Zaydonni «roman yozishga havaslantirgan» ustoz deb ataydi.

A. Qodiriy matbuot, jumalistika sohasidagi bilim va malakasini oshirish maqsadida 1924-25-yillarda Moskvadagi oliy jumalistika institutida ta'lim oladi, Moskvada o'qigan kezlarda ham respublika matbuoti bilan aloqasini uzmaydi. Qodiriy boshda oktabr inqilobi tufayli jasorat oldik», «so'z erkinligi oldik» deb quvonadi, bor ovoz bilan haqiqatni aytish, yozishga chog'lanadi. U hayotdagi ayrim yangiliklari olqishlash, himoya qilish bilan barobar yangi hayot yo'lidagi xilma-xil to'siqlarni fosh etishga, sho'ro voqealigiga xos ziddiyatlarni, siyosatdagi xato va kamchiliklari xolis turib ko'rsatishga jazm etadi. Ammo uning bu urinishlari birin-ketin zarbaga uchray boshlaydi. 1926-yili «Mushtum»da bosilgan «Yig'indi gaplari» hajviyasidagi hayotdagi kamchiliklar, hukumat rahbarlari haqidagi tanqidiy gaplar uchun «aksilinqilobiy harakat qilganlik»da ayblanib qamoqqa olinadi. To'rt oydan oshiq davom etgan tergovda, nihoyat, sudda mardona turib bo'htonchi g'alamislarni ayovsiz fosh etadi, siyosiy ayblar, dag'dag'alardan aslo cho'chimay faqat haqiqatni aytadi, zug'umlarga qarshi ochlik e'lon qiladi, qat'iy turib o'z sha'nini himoya etadi; «Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa «ix» deydigan yigit emasman» deydi. Oliy sud Qodiriyning ikki yil ozodlikdan mahrum etish haqida qaror chiqaradi. Halol, insofli odamlarning aralashuvi bilan hukumat sud hukmini bekor qiladi. Bu mudhish voqea adib dilida chuqur iz qoldirdi, ijodiy taqdiriga, faoliyatiga og'ir ta'sir ko'rsatdi, matbuotdan, jamoa ishlaridan ko'ngli qoldi. Biroq u badiiy ijodni to'xtatmadi.

Abdulla Qodiriyning yozuvchi sifatida elga tanitgan ilk asarlar «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» va «Toshpo'lat tajang nima deydi» hajviy qissalari bo'ldi. «Kalvak mahzum» 1923-27-yillar orasida yozildi, asar matbuotda peshma-pesh e'lon etib turildi. Qodiriy qissada «ko'bdan haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan, madrasa xurofoti bilan miyasi g'ovlag'on» mahalla imomi Kalvakning kulgilik sarguzashtlarini hikoya qiladi. Mahzum sarguzashtlari orqali adib faqat «qoloq kimsa»ni fosh etish bilan cheklanmaydi, 20-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarning ko'pgina salbiy tomonlariga, adib iborasi bilan aytganda, jamiyat qitig'iga» tegib o'tadi.

«Toshpo'lat tajang» asari qahramoni ma'rifatsizlik tufayli ko'p hollarda oddiy turmush chigalliklarini yecholmay, hayot hodisalari mohiyatini anglab yetolmay qiynaladi, kulgili, tang ahvolga tushib qoladi. 20-yillardagi murakkab, og'ir sharoit, nohaqliklar uni shu ahvolga solgan.

A.Qodiriy sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida qizg'injurnalistik faoliyat bilan barobar yirik asar -«O'tkan kunlar» romanini ham yaratdi (1919-20) «O'tkan kunlar» yaratilgan davr o'zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi mustaqilligi, jahondagi o'mi masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi

Qodiriy ijtimoiy, ijodiy faoliyatining ilk qadamlaridanoq Turkiston taraqqiyparvar ziyolilari safida turib ona yurtning, millatning taqdiri ustida astoydil qayg'urdi, o'zicha najot yo'lini izladi. Avvaliga u bolsheviklarning va'dalariga ishonadi, ammo adib bu va'dalar qog'ozda qolib ketayotganini, yovuz mustamlaka siyosati mohiyat e'tibori bilan o'zgarmay qolayotganini, munofiqona tus ola- yotganini, el orasida buzg'unchilik, fitna, sinfiy-mafkuraviy adovat avj oldirilib, birodarkushlik urushi boshlanib ketganligini, sho'rlik xalq bu qonli siyosatning qurboni bo'layotganligini o'z ko'zi bilan ko'rди. Ayniqsa Qo'qon (aslida Turkiston) muxtoriyatining yakson etilishi ko'p hur fikrli ziyolilar qatori Qodiriyning larzaga soldi. Xuddi shu fojeyi hodisa «O'tkan kunlar» yozilishiga turtki bergan bo'lsa ajab emas. Adib bu romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi, «tariximizning eng kirlik, qora kunlari» - yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi «xon zamonlari» -XIX asr rniyonasidagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ladi; bir vaqtlar jahonga dovrug' solgan temuriylar davlatining yemirilib, parchalanib, oxir-oqibat shu ahvolga tushish sabablarini badiiy tahlil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Qodiriy ikkinchi yirik asari «Mehrobdan chayon»ni 1928-yil fevralida yozib tugatdi. Asar 1929-yili Samarqandda bosilib chiqdi. Garchi bu roman mavzui ham XIX asr hodisalaridan, keyingi «xon zamonlari»dan olingan, Turkiston xonlarining keyingi vakili Xudoyorxon davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsa-da, asarda roman yozilgan davr ruhi kuchi. Asarni «Mehrobdan chayon» deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh-sajdagohdan chiqqan, o'sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo 'y, e 'tiqodsiz kishilarga ishoradir. Romandagi Anvar bilan Ra'noning sevgi sarguzashti, qalb

nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih maxdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslikda yozuvchining jiddiy yutug'i, kashfiyoti sifatida e'tirof etilgan.

A.Qodiriy 30-yillardagi murakkab sharoitda ham ijodni davom ettirdi. 1934- yili qishloq hayotidan «Obid ketmon» romanini yozdi. Asardagi Obid obrazi o'zbek adabiyotida noyob hodisa. Obid obrazini o'zbek xalqining mehnat, dehqonchilik madaniyati bobidagi yetukligi timsoli deyish mumkin. Yozuvchi inson shaxsiga yondashishda o'sha davrda odat tusiga kirgan tor «sinfiylik» doirasidan ancha chetga chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlash yo'lidan boradi. Adib xolis turib kollektivlashtirish harakatining bir qancha tomonlarini haqqoniy ko'rsatadi. Ichki muammo - ziddiyatlarni ochib beradi, ehtimol tutilgan xatarli oqibatlardan ogohlantiradi, kolxoz tuzumi pirovardida odamlardagi tashabbusni, shaxsiy egalik, manfaatdorlik tuyg'usini so'ndirishini aytadi.

«Obid ketmon» romani ham sho'ro mafkurachilari kutgah asar bo'lib chiq- madi. Buning ustiga mamlakat osmonida Stalin qonli siyosati tufayli qo'zg'algan to'zonlarning qora buluti quyuqlasha boshladi. Shu to'zon qurbonlaridan biri haqiqatgo'y, mardona shaxs Qodiriy bo'ldi. Matbuotda Qodiriyga yangi hujumlar boshlandi, ayniqsa, 1937-yilga kelib bu ish avjiga chiqdi. 1937-yil 31-dekabr kuni Qodiriy hibsga olindi. To'qqiz oylik qamoqdagi so'roq, qiynoq, xo'rliklardan so'ng 1938-yil 4-oktabrda Cho'lpon, Fitrat kabi maslak-doshlari bilan birga qatl etildi.

Qodiriy hibsga olingach, ko'p o'tmay oilasini ta'qib etish boshlandi. Qodiriyning shahar chekkasidagi hovli-joyi tortib olindi, mashhur bog'i payhon qilindi, bu tabarruk maskan otxonaga, cho'chqaxonaga aylantirildi. Qodiriy asarlari zararli sanalib o'tga yoqildi, ularni o'qish taqiqlandi. Qodiriy asarlarini yashirib o'qigan yoki ular haqda biror kalima iliq gap aytgan odamlarning yostig'i quritildi. Keyinroq Qodiriyning o'g'li - medisina instituti tolibi Habibulla «xalq dushmanining farzandi» sifatida hibsga olinib surgun qilindi. Bunday ta'qibu tahdidlar yigirma yil davom etdi. Nihoyat, Stalin o'limidan so'ng totalitar rejimning aybsiz aybdorlari, qurbonlari qatori Abdulla Qodiriy ham oqlandi. 1958-yildan boshlab uning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. Istiqloq davriga kelib Qodiriyga hurmat - ehtirom yanada ortdi, ulug' adib Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti, Mustaqillik ordeni bilan taqdirlandi, uning nomida eng yaxshi adabiyot, san'at va me'morchilik asarlari uchun davlat mukofoti ta'sis etildi. Bir qancha madaniyat muassasalariga uning nomi berildi.



## G'AFUR G'ULOM (1903-1966)

O'zbek adabiyotining yana bir yirik namoyandasi, O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulomdir. G'afur G'ulom 1903-yilning 10-may kuni azim Toshkentning Qo'rg'ontegi mahallasida, kambag'al oilada dunyoga keldi. U to'qqiz yoshga yetganda otasi vafot etadi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay onasidan ham ayriladi. Ota-onadan yetim qolgan bu kabi bolalar taqdiriga achinadigan, ularning boshini silaydigan odam u paytlari kamdan-kam topilardi. Chunki hamma Birinchi jahon urushi tufayli abgor holga kelgan o'z ro'zg'ori tashvishi bilan ovora edi. G'afur avval ibtidoiy maktabda, keyin esa, yaqin qarindoshlari ko'magi bilan, rus-tuzem maktabida xat-savodini chiqaradi. Muallimlar tayyorlaydigan kurslarni bitirib, maktablarda dars beradi. 1917-yildagi oktabr to'ntarishi bilan boshlangan bosh-boshdoqlik, ochlik muhiti shundoq ham ko'payib ketgan yetim-yesir bolalar sonini yanada oshirgandi. Hukumat majbur bo'lib, bunday bolalarni o'z qaramog'iga olar, ulardan sho'ro hukumatiga xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlashga umid bog'lardi. 1923-yildan G'afur G'ulom mana shunday yetim bolalar uyida tarbiyachi, hatto bir muddat mudir bo'lib ham xizmat qiladi. Yozish-chizish ishlariga tug'ma iqtidori bo'lgan G'afur G'ulom o'z davrining mashhur nashrlari bo'lmish gazeta va jurnallar bilan yaqin aloqa o'rnatadi, tahririyatlarda xizmat qiladi. O'sha yillari «Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» singari gazetalarda, «Mushtum» jurnalida uning yuzlab katta-kichik maqolalari, felyetonlari bosiladi. O'zining iste'dodi adabiy ijodda ko'proq namoyon bo'lishini sezgan G'afur G'ulom davrning yangi urfga kirayotgan she'riy shakllari (barmoq, sarbast) da ko'p mashqlar qiladi. Buning hosilasi bo'lib, birinchi dastlabki she'riy to'plami 1931-yilda «Dinamo» nomi ostida chop etiladi.

1932-yilda esa «Tirik qo'shiqlar» degan ikkinchi to'plami nashr qilindi. Albatta, bu kichik to'plamlarga jamlangan ko'pchilik she'riar o'z davri mafkurasining kuchli ta'siridan xoli bo'lmagan. Aksariyat tizmalar zamonning o'tkinchi mavzulariga bag'ishlangan. Ularda sho'ro hukumati barcha joyda targ'ib qiladigan mavzular she'riy shaklga solingan, she'rlarning badiiy darajasi ham u qadar yuksak emas edi. Shunga qaramasdan, bu urinishlar izsiz ketmadi. Sekin-asta G'afur G'ulom

ijodida milliy rah ifodasi kuchli namoyon bo'lishi, u she'riyatda hali qo'l urib ko'rilmagan badiiy usullardan dadil foydalana olish qobiliyatiga ega ekani tna'lum bo'la bordi. Garchi, yuqorida aytilganidek, davr mafkurasi ta'siri sezilib tursa-da, masalan, «Turksib yo'llarida», «Yalovbardorlikka» singari o'nlab she'rlari o'zining ohori to'kilmagan topilmalari, lirik pafosi, kuchli samimiyati bilan o'quvchini o'ziga jalb qilar edi. Bunday xulosani i 1930—1935-yillar oralig'ida liro-epik janrda yaratilgan «Ko'kan» poemasi, «To'y», «Ikki vasiqa» balladlari to'g'risida ham aytilish mumkin. Jahon va milliy adabiyotimiz tarixini kuzatib bir qonuniyatni o'zingiz uchun kashf etgan bo'lsangiz, ajab emas. U ham bo'lsa, aksariyat ijodkorlar adabiyotning muayyan bir yo'nalishidagi ijodiy yutuqlari bilan ko'proq dovrage' qozonganidir. Ya'ni, kimdir she'riyatda, kimdir nasrda, boshqa bir ijodkor esa dramaturgiyada o'zini erkin his qiladi, ijodiy qanotlarini keng yozadi. Xuddi shu tufayli ham Lev Tolstoy, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor deganimizda ko'z oldimizda epik (nasriy) janr ustalari namoyon bo'lsa, Sergey Yesenin, Abdulla [ To'qay, Usmon Nosir, Hamid Olimjon nomi tilga olinganda, beixtiyor, she'r musiqasi qulog'imizga chalinadi... G'afur G'ulom misolida esa bu yozilmagan qonuniyatning har | doim ham amal qilavermasligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, G'afur [ G'ulom ham she'riy, ham nasriy janrlarda birdek muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi, har ikki yo'nalishda o'zidan nodir namunalar qoldirdi. Uning XX asrning 30-yillarida yaratgan «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda», «Shum bola» singari qissalari, o'nlab hikoyalari milliy prozamazning rivojida beqiyos rol o'ynadi. Ikkinchi jahon urushi voqealari, ko'rguliklari G'afur G'ulom qalbida o'chmas iz qoldirdi. Agar u Birinchi jahon urushi yillarida bolaligiga borib, urushning butun dahshati va asoratlarini to'liq his qila olmagan bo'lsa, yangi urushni va uni qo'zg'aganlarni ijodkor o'zining shaxsiy, ashaddiy dushmani deb bildi. Shu yillari shoirming «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «Men — yahudiy» singari torn ma'nodagi mumtoz she'rlari dunyoga keldi. Shoir urush yillarida yozilgan she'rlari jamlangan «Sharqdan kelayotirman» to'plami uchun 1946-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi. G'afur G'ulomga, o'zbek fani va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi inobatga olinib, ijodkor do'sti Oybek bilan birga akademik unvoni ham berilgan edi (1943-yil). G'afur G'ulom urushdan keyingi yillarda ham faol ijod qildi. lining mumtoz va zamonaviy adabiyot bilimdoni sifatida yozgan maqolalarini,

turmushning turli jabhalariga oid publitsistik chiqishlarini, felyeton va kulgili hikoyalarini xalq jon-dili bilan kutib olar, shoirga hamma joyda yuksak e'zoz ko'rsatilar edi. G'afur G'ulom 1963-yilda «O'zbekiston xalq shoiri» unvoniga sazovor bo'lgandi. Yuqorida aytilganidek, G'afur G'ulomning hayoti va ijodiy faoliyati bir tekis, sokin-osoyishta kechmadi. U zamonning, mafkuraning kuchli tazyiqlariga birda bas kelsa, birda u bilan hisoblashishga majbur bo'lgan edi. Bu ko'rgiliklar ijodkor qalbiga bitmas jarohatlar yetkazar, u o'ylagan, his qilgan barcha haqiqatlarini ochiq-oshkora yozolmaslikdan benihoya iztirobga tushar edi. Bu iztiroblar esa shoir ko'nglinigina emas, vujudini ham ichdan kemirib borar, u 60 yoshga yetar-yetmas, mo'ysafid qiyofasiga kirib qolgan edi. Shu tariqa, 1966-yil 10-iyul kuni o'zbek adabiyoti yana bir buyuk namoyandasidan ayrildi — G'afur G'ulom 63 yoshida og'ir xastalik tufayli vafot etdi.

Mustaqillik yillarida G'afur G'ulom xotirasi va merosiga katta diqqat-e'tibor qaratilmoqda. 2003-yilda adib tavalludining 100 yilligi Respublikamiz miqyosida keng nishonlandi. Toshkent shahridagi istirohat bog'laridan biriga uning nomi berilib, muazzam haykali o'rnatildi. G'afur G'ulom qissa va hikoyalari asosida qator spektakllar, badiiy va videofilmlar yaratildi. Uning nomi metro bekatini, ko'plab ko'chalar va xiyobonlarni bezab turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan G'afur G'ulomga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan.

## **OYBEK** (1905-1968)



Oybek 1905 yil 10 yanvarda Toshkentda hunarmand bo'zchi Toshmuhammad oilasida tug'ilgan. Oybek adabiy taxallus bo'lib, yozuvchining asli ismi Musordir. Bolaligi haqida Oybek: «Otam yoshligida bo'zchi, keyin Xumson va Yangibozor qishloqlarida bakqollik qilgan. O'qimagan, jahli tez, tajang bir odam edi. Onam jismoniy kuchsiz, lekin aqli ziyrak, rahmdil va har ishga epchil xotin edi.»

Oybek avval eski maktabda, so'ng yangi maktabda o'qigan. U 1930 yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ning

ijtimoiy fanlar fakultetini bitirib, 1935 yilgacha shu dorilfununda siyosiy iqtisod fanidan dars bergan.

1934-1937 yillarda O'zbekiston fanlar Akademiyasi Til va adabiyot ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan.

1938-1941 yillarda O'zbekiston o'quv pedagogika nashriyatida adabiy tarjimon va muharrirlik vazifasini bajargan.

1945-1949 yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rais bo'lib ham ishlagan. «S'Harq yulduzi», «O'zbek tili va adabiyoti» jurnallariga bosh muharrirlik qilgan.

Oybek 1943 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil etilishi bilan oq unga haqiqiy a'zo etib saylanadi.

1965 yilda «O'zbekiston halq yozuvchisi» degan unvonga sazovor bo'ldi. «Navoiy» romani uchun Davlat mukofoti, «Bolalik» qissasi uchun O'zbekiston davlat mukokofotiga loyiq topildi.

Oybek adabiyot maydoniga 20- yillarning boshlarida dastlab lirik shoir sifatida kirib kelgan. Oybekning ilk she'riy asarlari u texnikumda o'qib yurgan kezaridayoq yozilgan. Yosh shoirning matbuotda e'lon qilingan birinchi she'ri «CHolg'u tovushi» deb ataladi. («Armug'on» to'plami, 1922 yil). Keyinchalik shoirning «Tuyg'ular» (1926 yil), «Ko'ngil n aylari» (1929 yil), «Mash'ala» (1932 yil) singari she'rlari birin-ketin yuzaga kela boshladi.

Oybekning 30-yillardagi ijodida doston janri salmoqli o'rin egallaydi. Bu davrda shoir o'zbek o'tmish adabiyotidagi dostonchilikning ilg'or an'analaridan, xususan, jahon adabiyoti tajribalaridan ijodiy foydalanib, «Dilbar- davr qizi», «Baxtigul va Sog'indiq», «Kamonchi», «Navoiy»(1937 yil) kabi rang-barang dostonlar yaratdi.

U 1942-yilda O'zbekiston vakillari tarkibida frontga bordi va to'rt oy mobaynida g'arbiy frontdagi jang maydonida askarlar orasida bo'ldi. Uning keyinchalik nashr etilgan «Quyosh qoraymas» romani «Olovli yillar» she'ri to'plami va «Front bo'ylab» (1965) kundalik daftari jang maydonida qilingan ana shu safar materiallari va taassurotlari asosida yaratilgan.

«Qizlar» (1947), «Hamza» (1948), «Zafar va Zahro» (1950), «Haqgo'yalar» (1954), «Bodom» (1957), «Davrim jarohati» (1965), «Guli va Navoiy», «Bobur» (1968) nomli liro-epik asarlar yozib, o'zbek dostonchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.



1940-yilda yozilgan «Qutlug' qon» romani badiiy jihatdan yetuk hisoblanib, o'zbek xalqining 1917 yil to'ntarishi arafasidagi og'ir hayoti, ozodlik yo'lida olib borgan kurashlari keng va atroflicha tasvirlangan.

Oybekning 1944 yilda yozgan «Navoiy» romani o'zbek adabiyoti tarixida faxrli o'rin tutadi.

Uning ijodida qissa janri ham muhim o'rin egallaydi. Oybek «Nur qidirib» (1957), «Bolalik» (1963), «Alisherning yoshligi» (1967) qissalarining muallifidir.

Oybekning adabiyotshunoslik va badiiy tarjima sohasidagi xizmatlari ham buyukdir. U Pushkinning «Evgeniy Onegin» she'riy romani, Lermontovning «Maskarad» dramasi, «Demon» poemasi, Genrix Geynening «Qullar kemasi» dostoni va boshqa ko'plab asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

O'zbekiston hukumati qarori bilan 2005 yilda Oybekning 100 yilligi keng nishonlandi.



## ABDULLA QAHHOR

(1907 – 1968)

O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abdulla Qahhor 1907 – yil 17 – sentyabrda Qo'qonda temirchi oilasida dunyoga keldi. Otasi Abduqahhor temirchi tirikchilik o'tkazish uchun Qo'qon atrofidagi Buvayda, Yaypan, Oqqo'rg'on, Qudash, Olqor qishloqlarining biridan ikkinchisiga ko'chib yurar, oila biror qishloqda uzoqroq qo'nim topmasdi. Bu ta'sirchan, xayolparast va tortinchoq Abdullaga yomon ta'sir qilardi. U boradigan joydagi bolalarga qo'shila olmasdi. Bo'lajak yozuvchi dastlabki ma'lumotni Buvadadagi eski maktabda oldi. So'ng Oqqo'rg'on qishlog'idagi yotoqmaktab(internat)da o'qidi.

1922 – 24 yillarda Qo'qonda ochilgan o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda tahsil ko'rdi. Abdulla Qahhor 1925 – yili Toshkentga kelib, kechasi o'qib, kunduzlari “Qizil O'zbekiston” gazetasida ishladi. 1926 yilda SAGUning tayyorlov fakultetini bitirgan A. Qahhor 1930 – yilda O'rta Osiyo Davlat universitetning pedagogika fakultetini tugatdi. Abdulla Qahhorning ijodi 1924 – yildan boshlagan. Dastlab “Mushtum” jurnalida, “Yangi Farg'ona” va “Qizil O'zbekiston” gazetalarida uning hikoya, felyeton va xabarlari bosildi. 1935, 1938, 1939 – yillarda

adibning uchta “Hikoyalar” to’plami kitobxonalar qo’liga tegdi. Abdulla Qahhorga katta shuhrat keltirgan “Sarob” romani 1934 – yilda yozildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozuvchining bir qancha felyeton, qissa va hikoyalari e’lon qilindi. “Asror bobo”, “Dardoqdan chiqqan qahramon”, “Kampirar sim qoqdi”, “Xotinlar” hikoyalari va “Oltin yulduz” kabi qissalari o’zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozligi mahorat bilan ifodalangan. Yozuvchi urushdan keyingi yillarda “Qo’shchinor chiroqlari” romani, “Shohi so’zana” (1951), “Og’riq tishlar” (1954), “Tobutdan tovush” (1962), “Ayajonlarim” (1967) komediyalari bilan o’zbek adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo’shdi. Adibning “Sinchalak” (1958), “Muhabbat” (1968) “O’tmishdan ertaklar” (1965) qissalari o’zbek nasri taraqqiyotiga muhim hissa bo’lib qo’shildi. O’zbek kitobxonlari M.Gorkiyning “Mening dorilfununlarim” (1935), F. Glodkovning “Olovli ot” (1933), L. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanining 1 – 2 kitoblarini va boshqa bir qator asarlarni Abdulla Qahhor tarjimasida o’z ona tillarida o’qishga muvaffaq bo’ldilar. Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun A. Qahhor “O’zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni berildi. U 1968 – yilning 25 – mayida vafot etdi.



## MAQSUD SHAYXZODA (1908-1967)

O’zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, zabardast dramaturg, adabiy faylasuf Maqsud Ma’sum o’g’li Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Oqdosh shahrida tavallud topdi. Boshlang’ich ma’lumotni Oqdoshda olgach, yangi maktabda o’qishni davom ettirdi. 1925 yildan muallimlik qilgan Shayxzoda Boku Oliy pedagogika institutini sirdan o’qib bitirdi.

U 1928 yilda Toshkentga kelib, turli ro’znoma va oynomalar muharririyatlarida, 1935—1938 yillarda esa O’zbekiston Fanlar Komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938 yildan Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti o’zbek klassik adabiyoti kafedrasiga rahbarlik qildi, yuqori malakali kadrlar tayyorladi.

Shoirning adabiy faoliyati 1929 yildan boshlandi. Uning «O’n she’r» (1932), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934),

«Jumhuriyat» (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovozi shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Ulug' Vatan urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarining fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» (1941), «Jang va qo'shiq» (1942), «Kapitan Gastello» (1941), «Ko'ngil deydiki» kabi she'riy to'plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» (1944) tarixiy drama va boshqa qator publitsistik asarlarini yaratdi.

Urushdan keynigi tinch qurilish yillarida Vatanimiz bo'ylab keng quloq yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash shoirning «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak devoni» kabi she'riy to'plamlari uchun asosiy mavzu bo'ldi.

1958 yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishidagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Xassos shoir 1980 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi bilan iste'dodli dramaturg sifatida tanildi. U buyuk inson — Ulug'bek obrazi orqali o'zbek dramaturgiyasida fojea janrining klassik namunasini yaratdi.

Shayxzoda Pushkinning «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» poemalari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning «Hamlet» va «Romeo va Juletta» tragediyalarini va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga ag'dardi. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi.

Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassiklarining mahorat maktabidan ta'lim oldi, ilg'or an'alarini o'zida mujassamlashtirgan she'rlar yozdi.

Shoirning adabiyot sohasidagi xizmatlari sho'ro hukumati tomonidan taqdirlangan. O'zbek adabiyotining tribun shoirlaridan Maqsud Shayxzoda falsafiy fikrlarga boy hikmatomuz asarlari bilan xalqimiz qalbida abadiy yashaydi. U bir kam oltmish yil umr ko'rdi. 1967 yilda olamdan o'tdi.

**ZULFIYA**  
**(1915-1996)**



1915-yilning 1-martida Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida tug'iladi. 1931–34-yillarda Xotin-qizlar bilim yurtida o'qiydi. Adabiy to'garaklarda qatnashadi va she'rlar mashq qiladi. 1931-yil 17-iyulda Birinchi she'ri «Ishchi» gazetasida bosiladi. 1932-yilga kelib Hamid Olimjon

bilan uchrashadi.

1932-yilda «**Hayot varaqalari**» nomli birinchi she'rlar to'plami chop etiladi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida o'qiydi. 1933–35-yillar davomida O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlaydi. 1935–38-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi til-adabiyot instituti aspiranturasida o'qiydi.

1938-yil Bolalar nashriyotida muharrir, 1939-yil «Qizlar qo'shig'i» she'riy kitobi chiqadi. 1941-yilda O'zbekiston Davlat nashriyotida adabiyot bo'limi boshlig'i lavozimida ishlaydi. 1943-yilda «Hulkar» kitobi, «Uni Farhod der edilar» poemasi nashr etildi. 1944-yilda «Hijron kunlarida» kitobi chiqadi. 1944-yil Hamid Olimjon vafotiga atab «Kechir, qoldim g'aflatda», «Yulduz», «Ne baloga etding muhtalo», «Sen qaydasan, yuragim», «Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh», «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rlarini yozadi. 1950–53-yillar mobaynida «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnali bo'limi boshlig'i bo'lib faoliyat yuritadi.

1950-yili «Men tongni kuylayman» she'riy kitobi chiqadi. 1953-yilda «Dugonalar bilan suhbat» kitobi nashr etiladi. «Oydin» ocherki bosildi. 1954-yilda «Saodat» jurnalining bosh muharriri etib tayinlanadi. 1958-yilga kelib «Yuragimga yaqin kishilar» kitobi chiqadi. «Mushoira» she'ri, «Zaynab va Omon» operasi librettosi yozildi. 1965-yili unga O'zbekiston xalq shoiri unvoni beriladi. «Kuylarim sizga» she'rlar to'plami, «O'ylar» adabiy maqolalari kitobi chop etiladi. 1967-yili Neru xalqaro mukofoti laureati bo'ldi. «Quyoshli qalam» poemasini yozdi. 1970-yilda Zulfiya Nilufar nomli xalqaro mukofot laureati bo'ldi. 1972-yil shoiraning «Visol» she'rlar to'plami nashr etildi. 1972-yili Bolgariya Xalq Respublikasining I-darajali Kirill va Mefodiy ordenini oldi.

1974-yilda 2 jildlik «Asarlar» to'plami nashrdan chiqdi. 1975-yilda «Yillar, yillar» she'rlar kitobi chop etildi. 1976-yilda «Kamalak» she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti berildi. «Shalola» she'rlar kitobi chiqdi.

1984-yilda Zulfiyaga Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Respublika Davlat mukofoti laureati bo'ldi, Hamid Olimjonning «Semurg'» dostoni asosida pyesa-ertak yozdi. 1996-yil. 81 yoshida vafot etdi.

## SAID AHMAD

(1920-2007)

O'zbek adabiyotining yetak nosirlaridan biri Said Ahmad Husanxo'jaev 1920 yili Toshkentning Samarqavd darboza mahallasida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Shu yerda o'rta maktabni (1939) bitirib, Oliy o'quv yurtida (1940—1941) ta'lim olgan. Adabiyot darslari va to'garaklarida ijodga bo'lgan havasi ortib, qo'lga qalam ushlagan, vaqtli matbuot uning ijod dorilfununi bo'lgan. Said Ahmad dastlab «Mushtum» oynomasida, Radio komitetida (1942—1943), «Qizil O'zbekiston» ro'znomasi (1943—1947), «Sharq yulduzi» oynomasida (1948—1950) va so'nggi yillarda u O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi qoshidagi nasr bo'limiga boshchilik qiladi. Uning birinchi hikoyalar to'plami «Tortiq» 1940 yilda nashr etiladi.

Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab fel'eton, ocherk va hikoyalar yozdi. «Er yurak» (1942), «Farg'ona hikoyalari» (1948), «Muhabbat» (1949) kabi to'plamlar nashr etildi. Ulug' Vagan urushi davri voqealariga bag'ishlangan «Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat azizlarim» kabi hikoyalarida avtor urushning dahshatli oqibatlarini hayajonli tasvirleydi, urush qahramonlarini ulug'laydi.

Adibning hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhorning bayondagi lakonizmi mujassamdir.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan. U hikoyalarida tasvirleydigan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqarishga, voqealarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashga, badiiy priyomlarning xilma-xilligiga erishishga intildi. «Cho'l burguti», «O'rik domla», «Lochin», «Odam va bo'ri», «Bo'ston», «To'y boshi» kabi qator asarlari Said Ahmad ijodida ham, o'zbek nasrida ham yangilik bo'ldi, Adib hikoyalarining bosh qahramoni ichki dunyosi boy va pok bo'lgan zamondoshlarimizdir. Muallif «Tog' afsonasi», «Zumrad», «Muhabbatning tug'ilishi», «Ko'zlarinda o't bor edi», «Poyqadam», «Alla», «Iqbol chiroqlari» asarlarida hayotiy xarakterlar yaratdi.

Said Ahmad hajviy hikoyalarida taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan kuladi, yangicha ma'naviy-axloqiy masalalarni o'rtaga qo'yadi. Aksincha, o'zbek psixologiyasiga

singmaydigan, milliylikdan yiroq bewatan, bemillat, yangicha urf-odatlar, udumlar ustidan ham qahqaha otib kuladi. Uning «Xanka bilan Tanka» «Lampa shisha» kabi o'nlab hajviyalari shular jumlasidandir. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o'zbek radio va televideniyesida quvnoq miniatyuralar teatriga asos solgan.

Said Ahmad hikoyalardan asta-sekin yirik polotnolar yaratishga o'tdi. 1949 yilda chop etilgan «Qadrdon dalalar» va «Hukm» (1958) qissalari shular jumlasidandir.

«Ufq» romanida (1964) Ulug' Vatan urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonliklari atroflicha hikoya qilinadi. «Ufq» trilogiya bo'lib, yozuvchi unda urushdan oldingi va undan keyingi davr hayotiy muammolari haqida bahs yuritadi. U o'zining «Jimjitlik» (1988) romanida esa turg'unlik davri illatlarini fosh etishga intildi.

Said Ahmad mohir dramaturg sifatida ham tanildi. Uning «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov» kabi sahna asarlari shular jumlasidandir.

Said Ahmad ham qatag'onlik zulmining ikkinchi to'liqiniga duchor bo'lgan, lager azoblarini tortgan ijodkordir. O'z talanti va ona xalqiga sadoqat, katta ishonch adibni so'z san'atkori darajasiga yetkazgan.

Ijodkor tarjima ishlari bilan ham faol shug'ullangan. Jumladan, B. Polevoy, A. Musatov, O. Gonchar kabi yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ayni chog'da adibning ko'pgina hikoyalari qardosh va horijiy tillarga ag'darildi.

## ODIL YOQUBOV

(1927)

Odil Yoqubov — o'zbek adabiyoti taraqqiyotining XX asr 50-yillaridan boshlangan yangi bosqichida yetishgan navqiron adabiy avlodning karvonboshilaridandir.

Odil Yoqubov tabiatan faol, jamoatchi shaxs. U jamoat ishlariga hayotini tikkan, shu yo'lda qurbon bo'lgan ota farzandi. Bolalikdanoq 30-yillarning talotumlari, so'ng urush davri suronlari qo'ynida, odamlar orasida mashaqqatli mehnat jabhalarida toblangan, faqat oilaviy hayoldagj ko'rgiliklar emas, el-yurt tashvishlari bilan yonib yashashga o'rgangan. Ikkinchi jahon urushining oxirgi yillarida yoshiga bir yosh qo'shib, o'z arizasiga ko'ra armiya xizmatiga kirib, Uzoq Sharqdagi janglarda ishtirok etgan; uning talabalik yillari, lurli tahririyaardagi xizmatlari, «Literaturnaya gazeta» dagi muxbirlilik, «O'zbekiston

adabiyoti va san'ati"ga bosh muharrirlik, Yozuvchilar uyushmasiga rahbari sifatida jo'shqin, fidokorona faoliyati bilan el-yurtda katta shuhrat qozongan.

Yozuvchi nasrida zamondoshlar obrazi, davr muammolari talqini

O.Yoqubov adabiyotga o'z tengdosh-zamondoshlari kuychisi, solnomachisi sifatida kirib keldi, asarlarda birinchi galda o'z davrining o'tkir, ijtimoiy-ma'naviy masalalarini ko'tardi. O.Yoqubov harbiy xizmatda ekanidayoq ko'p ijodiy mashqlar qilgan. 1951-yili "Tengdoshlar" degan qissasi bosildi. Sundan keyin o'n yil Uavomida bir necha asarlar c'ion qildi. Ammo Odil Yoqubovni yozuvchi sifatida elga tanitgan asari 1960- yilda yozilgan, 1961- yili e'lon qilingan «Muqaddas» qissasi bo'ldi. Ham ma'yus, ham allaqanday nurli ohanglarga iolla bu sevgi dosloni qizg'in bahs-munozirralaiga oxuqa berdi. Bu asar shunchaki ikki yoshning sevgi qissasidan iborat bo'lmay, unda sevgi bahonasida insonning inson, el-yurt oldidagi burchi, halollik, adolat, diyonat kabi masalalar ko'tarilgan edi. Muallif «Muqaddas" qissasida hayotning o'zidan olgan zavqini, yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi, o'zi qalamga olgan hodisalarni murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga yetkaza oldi. Qissada ikki yoshning hayotdagi ilk mustaqil qadamlari, quvonch. va tashvishlari nihoyatda samimiy hikoya qilingan. Eng muhimi, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gap kitobxon ko'nglini hayajonga soladigan go'zal bir badiiy shaklni topa olgan. Qissa qahramoni Sharifjon muayyan bir vaziyatda o'z irodasiga, vijdoni, e'tiqodiga xilof ravishda xudbinlik ko'chasiga kiradi. O'zgarlar manfaatiga zid bu xafli-harakat, avvalo, qahramonning o'zi uchun noxushlik olib keladi; eng aziz bisoti — sevgilisidan judo boladi. Sharifjonning qing'ir yo'llar bilan sevgilisi Muqaddas o'rniga o'qishga kirib qolishi bir tasodif. Ammo shu tasodif zamirida yozuvchi hayotning muayyan haqiqati, ziddiyati, falsafasini ko'radi, ya'ni bu dunyoda ko'pchilik manfaatiga zid xulti-harakat o'sha odamning shaxsiy manfaatiga zid tushishi mumkinligini juda nozik va ta'sirchan ifoda etadi."Muqaddas" yozuvchining bosh estetik, axloqiy prinsiplarini tasdiq etuvchi asar sifatida ham qimmatli. " Muqaddas" so'zi faqat qissa qahramoni nomi bilangina bog'liq bo'lmay, yozuvchi asarda zo'r ehtiros bilan ilgari surgan — vijdon, burch, diyonat. imon-e'tiqod g'oyasini ham o'zida ifodalaydi. «Muqaddas»dan tortib «Diyonat", "Adolat manzili"ga qadar e'tiborga sazovor barcha asarlarda xuddi shu muammo adibning diqqat markazida turadi.O. Yoqubov zamondoshlari haqidagi «Bir felyeton qissasi», «Qanot juft boladi», «Matluba» qissalari, «Er boshiga

ish tushsa», «Diyonat» romanlarida ko'pchilikni hayajonga solayotgan katta ijtimoiy masalalarga e'tibori tortdi. Ayniqsa, «Diyonat» romanida muallif 70- yillarda hayotda keng ildiz otgan turg'unlik mafkurasining zararli oqibatlarini zo'r ijodiy jasorat va rostgo'lik bilan ko'rsatdi. Adib roman ustida ishlar ekan, hayotda ko'p uchragan, dilida chuqur asorat qoldirgan bir hodisaga o'z munosabatini bildirishni — «katta ishlar qildim» degan bahonada odamlarning boshiga chiqib olgan, qonunchilikni oyoqosti qilishdan ham toymaydigan ulkan xo'jalik rahbari obrazini yaratish, uning parvozi va inqirozini ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. «Men hayotda ko'p adolatsizliklarga sabab bo'lgan bunday rahbarlar haqidagi o'ylarim va ko'rgan-kechirganlarimni romandagi Otaqo'zi obrazida mujassamlashtirishga harakat qildim» — deb yozadi muallif, ma'lumki, o'zbek adabiyotida 50 — 60- yillarda ham shunday o'zboshimcha rahbar xodim obrazlari ko'p yaratilgan. Ularning kolpchiligi nuqul bir yoqlama — salbiy xususiyatlar qorishmasidan iborat. Otaqo'zi ulardan farqli o'laroq, murakkabligi, kuchli va ojiz tomonlari bilan berilgan. Uning bilim, fikr, manfaat doirasi xiyla keng. Erta-yu kech el-yurt ishi bilan band bu rahbar xodim oila, farzandlari, qarindosh-urug'lar taqdirini ham o'ylaydi. Boshda u dilkash, tanti odam sifatida ko'rinadi. Ammo u bora-bora nobop ijtimoiy muhitda o'jar, mag'rur, o'zboshimcha, shafqatsiz. toshbag'ir kimsaga aylanadi. Asarda Otaqo'zi tomoridan o'tlkazilgan zulmlar, o'zboshimchaliklar bilan barobar, bu zug'umlarning aks-sadosi, hayot qarshiliklari tufayli zo'ravon Otaqo'zi boshiga tushgan chigal savdolar, qalbidagi qiynoqlar ham mahorat bilan tasvirlangan.»Otaqo'zilar qilgan adolatsizliklarni butun borligicha ko'rsatish uchun unga qarshi turadigan nihoyatda pok va halol bir inson, katta shaxs zarur edi, — deydi yozuvchi. — Baxtinga men hayotda faqat Otaqo'zi kabi nohalol kimsalarni emas, Nomnurod Shomurodovga o'xshagan nihoyatda pok, halol, insofli, diyonatli insonlarni ham ko'p uchratgandim".Yozuvchi inqirozga yuz tutgan Otaqo'zi bilan barobar Normurod domla hayoti fojiasini ham mahorat bilan ochib beradi. Bu odam uzoq va shonli hayot yo'lini bosib o'tgan, Biroq taqdir uni siylamagan, boshiga ko'p kulfatlar tushgan. U bor kuch-quvvatini, umrini fan, adolat, el-yurt ishiga fido etib, evaziga el-yurtdan hech narsa talab va ta'ma etmaydi, U roman asosida yotgan diyonat, e'tiqodning o'ziga xos timsoli. U e'tiqod, adolat yo'lida hech kimni hatto o'zini ham ayamaydi. Adolat, diyonat deb u o'zini ko'p qiynoqlarga giriftor etadi, ma'naviy tuban kimsalar bilan olishadi, bu olishuvlar Normurod domla dilini vayron etadi. Domlada



diyonat, adolat, e'tiqod yo'lidagi qat'iylik, chuqur insonparvarlik, zalumlarga mehr, hamdardlik tuyg'usi bilan yo'g'rilib ketgan; shuning uchun ham undagi o'jarlik, qat'iylik o'ziga xos joziba kasb etgan. Muallif Normurod domla obraziga xos yetakchi fazilatlar — diyonat, metindek e'tiqod jozibasini ochish bilan kifoyalanmay, bu xislatlarning ijobiy ta'sir kuchini, qudratini ham ko'rsatishga muyassar bo'lgan. Bir qarashda domla musibatlar girdobida qolgan ayanchli shaxs. Ayni paytda kitobxon bu odam ayanchli, nochor kimsa emasligini anglab turadi. Aslida u mardona, qahramonona ulkan shaxs. Bu adolatparvar, diyonat, yuksak e'tiqodli odam qarshisida har qanday qing'ir, nopok shaxslar dovdirab qoladi; uning adolati, diyonati, e'tiqodi qarshisida hatto Otaqo'zidek zo'rdvon odam ham oxiri bosh egadi. «Diyonat»ning mantiqiy, davomi bo'lgan «Oqqushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili» romanlarida ham yozuvchi shu xildagi zamondoshlarining ehtiroslar, bilan yaratilgan yorqin obrazlarni yaratgan.

## **Pirimqul Qodirov**

(1928- yil tug'ilgan)

Adibning hayot va ijod yo'li.

Pirimqul Qodirov o'zbek adabiyotiga XX asrning o'rtalarida kirib kelgan yangi avlodning atoqli vakilidir. Bolajak adib 1928- yil 25-oktabrda tug'ilgan. Halol cho'ponlikdan suruv-suruv qo'ylar egasiga aylangan badavlat Qodir aka oilasi sho'ro tuzumi tomonidan boy-zodagonlikda ayblanib, jo'jabirday farzandlari bilan Tojikistonning Shahrisonidagi Kengko'ldan O'zbekistonning Xovos tumanidagi Iskandar qishlog'iga badarg'a qilinadi. Bu adolatsizlik, uqubatlar Pirimqulning bolaligidan hayotga tiyrak ko'z, sinchkov nazar bilan qarashga o'rgatdi. Maktabda a'lo baholarga o'qidi. Toshkent Davlat universitetining sharqshunoslik fakulitetida tahsil oldi. Moskva aspiranturasini tugatib, Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan disserlatsiya yoqladi va fan nomzodi bo'ldi. Bu vaqtga kelib u el nazariga tushgan adib edi. Pirimqul Qodirov badiiy va ilmiy ijodni birga qo'shib olib bordi. O'zbek realistik prozasidagi badiiy til jozibasi, tilning xalq tili bilan aloqalari masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar e'lon qildi. Tashkilotchi, olim, jamoat va davlat arbobi sifatida Moskvadagi yozuvchilar uyushmasida, Respublika Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida va mustaqillik davriga kelib, mamlakat Oliy Majlisida mas'ul lavozimlarda ishladi. Badiiy tarjima yozuvchi Pirimqul Qodirov mahorati

shakllanishida muhim rol o'ynadi. U rus adiblari Tolstoyning «Kazaklar», K. Fedinning "Ilk sevinchlar", turkman yozuvchisi X. Deryayevning "Qismat" romanlarini o'zbek tiliga o'girdi. Adabiyotimizni rivojlantirishdagi katta xizmatlari uchun «O'zbekiston xalq yozuvchisi» yuksak unvoniga sazovor bo'ldi. P. Qodirov xassos, nozikta'b, o'ziga xos yozuvchi. Uning asarlaridagi yetakchi xususiyatlar so'zdagi hissiyot tiniqligida, asar hujayralaridagi uyg'unlik va yaxlitlikda, qahramonlar va muallif tilining musiqiy ranginligida, fikr-asli madaniyatidagi jozibada ko'zga tashlanadi.

## ERKIN VOHIDOV

(1936)



O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hozirgi o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biridir. Uning sharq mumtoz adabiyoti an'analari izidan borib, zamondoshlari ma'naviy dunyosini ochib beruvchi g'azallari, zo'r insoniylik ruhi bilan yo'g'rilgan talay she'rlari, urush fojialari haqida bahs etuvchi «Nido», hayol jumboqlari, inson qismati xususidagi falsafiy mushohadalari bilan yo'g'rilgan «Ruhjar isyoni», «Istambul fojiasi» asarlari, tomoshabinlarni xushnud etgan «Qltin devor» komediyasi, shuningdek, I. Gyote, S. Yesenin, A. Blok, M. Svetlov, A. Tvardovskiy, R. Xamzatovdan qilgan tarjimahiri, ayniqsa, «Eron taronalari» bilan «Faust» tarjimasi adabiyotimizda, ma'naviy hayotimizda ulkan voqea bo'ldi. Shoirning hayoti va ijtimoiy faoliyati «Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharaflil vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing kerakligini sezish — bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o'zimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o'rganganman», — deb yozadi shoir. Darhaqiqat, u badiiy ijodni faol jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib boradi. Yoshlar nashriyatida bosh muharrir bo'lib ishlagan. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida direktor», Yoshlik" jumaliga bosh muharrir Shoirning ijtimoiy faoliyati doirasi Rcspublika Oliy Kengashi va Oliy Majlisiga dcputati bo'lib saylangan, Oliy Kengashning oshkoralik masalalari qo'mitasi, Oliy Majlisning Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasiga raislik qilgan kezlari ayniqsa kengaydi. Bu yillarda atoqli shoir davlat va jamoat arbobi

Abdulla Oripov so'zi bilan ijro etiluvchi O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yangraganda tik turib hurmat bajo keltiramiz.



## O'TKIR HOSHIMOV

1941- yil 5-avgust. Toshkent viloyati Zangiota tumani Do'mbirabot mavzesidatug'ildi. 1958-yil. O'rta maktabni medal bilan bitirdi. 1964-yil. Toshkent Davlat dorilfunining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limini bitirdi. Avval universitetning sirtqi bo'limida, so'ng kunduzgi bo'limida o'qidi va turli gazeta tahririyatlarida ishladi. 1959-1960-yillar. "Temiryo'lchi" gazetasida kuryer. 1960-yil. "Qizil O'zbekiston" gazetasida kuryer. 1960-1962-yillar. "Transportniy rabochiy" gazetasida tarjimon. 1963-yil. "Qizil O'zbekiston" gazetasida adabiy xodim. 1963-1966-yillar. "Toshkent haqiqati" gazetasida adabiy xodim. 1966-1982-yillar. "Toshkent oqshomi" gazetasida bo'lim mudiri. 1982-1985-yillar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot bosh muharririning o'rinbosari.. 1985-1995-yillar. "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri. 1995- yildan hozirgi vaqtgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi. 1962-yil. "Po'lat chavandoz" nomli birinchi kitobi nashr etildi. 1963-yil 17-aprel. To'ng'ich badiiy asari- "To'rt maktub" hikoyasi "Toshkent haqiqati" gazetasida bosildi. 1963-yil oktyabr. Birinchi yirik asari- "Cho'l havosi" qissasi "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilindi. 1963-2001-yillar. 50 dan ortiq kitobi turli tillarda 2 million nusxadan ko'p tirajda nashr etildi. 1976-yil. "Bahor qaytmaydi" va "Qalbingga quloq sol" kitoblari uchun O'zbekiston Yoshlar mukofoti bilan taqdirlandi. 1983-yil. "Dunyoning ishlari" asari uchun Oybek nomidagi mukofot bilan taqdirlandi. 1986-yil. "Ikki eshik orasi" romani uchun Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. 1990-1991-yillar. "Sharq yulduzi" jurnalida muqaddas Qur'oni karimning o'zbek tilidagi ma'noli nashrini chop etishga boshchilik qildi. 1991-yil. O'zbekiston Xalq yozuvchisi unvoni berildi. 1991-yil. "Hurmat belgisi" ordeni bilan taqdirlandi. 1996-yil. "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. 1987-2000-yillar. Meksika, Turkiya, AQSh, Ssheveysariya, Xitoy, Pokiston, Avstriya, Slovakiya, Bangladesh, Hindiston va boshqa mamlakatlarda xizmat safarlari va rasmiy

delegatsiya tarkibida bo'ldi. 1994-yil. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati. 1999-yil. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati. 2001-yil. "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.



## SHUKUR XOLMIRZAYEV (1940-2004)

Shukur Xolmirzayev 1940 yili Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tavallud topdi. U o'рта maktabni tugatib, Toshkent dorilfununida tahsil ko'rdi. Ijodi o'quvchilik yillaridan boshlandi.

Shukur Xolmirzayev hozirga qadar kitobxonlarga juda ko'p hikoyalar, bir necha qissa va romanlar taqdim etdi. Uning ilk qissasi «Oq otli» tog' bolalari hayotidan hikoya qiladi.

Shukur Xolmirzayevning talabalikda yozilgan «To'liqlar» (1963) povesti zamondoshlarimizning murakkab taqdirini qalamga olinishi va o'ziga xos mahorati bilan Abdulla Qahhorning e'tiborini tortgan va ulkan adib student Shukurga maktub bitib, uni qutlagan edi.

Yozuvchining «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» (1965), qissasi avlodlar qismatiga, aniqrogi o'z avlodi — tengqurlari hayotiga bag'ishlangan bo'lib, voqelik ilk muhabbat iztiroblari tarixida tasvirlanadi.

Muallifning keyingi ijodi — «Olis yulduzlar ostida» «Hayot abadiy», «Og'ir tosh ko'chsa...» hikoyalar to'plami, «So'nggi bekat», «Qil ko'prik» «Yo'lovchi», «Olabo'ji» romanlaridir.

Shukur Xolmirzayev ijodining alohida xususiyati shundaki, bu adib o'zbek milliy hikoyachilik san'atini ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'tardi. Uning povest va romanlari hech qolishga sig'mas, tesha tegmagan obraz, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

San'atkor dramaturgiyaga qo'l urib, «Qora kamar» asarida bosmachi tamg'ali o'zbek vatanparvarlarini ilk bor ulug' ozodlik, mustaqillik g'oyasi uchun qahramonona kurash olib borgan fidoyi millatparvarlar qiyofasida haqqoniy badiiy aks ettirib berdi.

Shukur Xolmirzayev asarlari turli tillarga tarjima qilingan.

Keyingi yillarda adibning «Bodom qishda gulladi» (1968), «So'nmas olov» (1985) «Toglarga qor tushdi» (1987) asarlari yaratildi. Yaqinda esa uning «Olabo'ji» romani nashr etildi. U 1989 yilda Hamza

nomidagi Davlat mukofotiga, 1991 yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi upvoniga musharraf bo'lgan.

**Asarlari:** "O'n sakkizga kirmagan kim bor" (1964), "Taqdir bashorati" (1968), "Yo'llar, yo'ldoshlar" (1973), "Yur, tog'larga ketamiz" (1976), "Cho'loq turna" (1978), "Tuproq ko'chalar" (1978), "Qush tili" (1982), "Qahramonning so'nggi kunlari" (1984), "Tog'larga qor tushdi" (1986), "Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari" (1983), "Esiz, Eshniyozi!" (1988), "Bulut to'sgan oy" (1997) qissalari, "So'nggi bekat" (1976), "Qil ko'prik" (1984), "Olabo'ji" (1991), "Dinozavr" (1996) kabi romanlari, "Qora kamar" (1989) nomli dramasi, "Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi", "Bitiktosh", "Ozodlik", "O'zbeklar", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Ustozi", "Ko'k dengiz", "Tabassum", "Shudring tushgan bedazor", "Boychechak ochildi", "Otning egasi", "Navro'z, navro'z" singari o'nlab hikoyalari va boshqa ko'plab asarlari nashr qilingan.



## TOHIR MALIK

Tohir Malik Abdumalik o'g'li Habilovning adabiy taxallusi, Toshkent tug'ilgan, Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakulteti kechki bo'limida o'qidi, kunduzi qurilishda ishladi. 1966 yildan beri O'zbekiston radiosida, gazeta va jurnallar tahririyatida, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida, nashriyotlarda ishladi. Hozirgacha yozuvchining 20dan ortiq qissasi chop etildi. 1971 yilda chop etilgan "Hikmat afandining o'limi" dan keyin "Falak" (1976), "Somon yo'li elchilari" (1976) tahayyul, ilmiy-tahayyul qissalari bosildi. "Chorrahada qolgan odamlar" qissasida tahayyul va detektiv xususiyatlari seziladi. "Alvido bolalik" (1989), "Qaldirg'och" (1987) qissalarida muhim mavzu ishlanadi. Mutaqillik yillarida T.Malik "So'nggi o'q" (1990), 4 qismdan iborat "Shaytanat" (1994-2001), "Odam ovi" (2001), "Charxralak", "Murdalar garirmaydilar" (1999) qissalarini chop ettirdi. Yozuvchi 20 asrdagi hayotni, kishilar taqdirini goh tahayyul, goh izchil xolis, goh detektiv yo'sinda tasvirlaydi. U qissa janri imkoniyatlarini uzluksiz boyitib

bormoqda. 2002 yilda yozuvchining “Mehmon tuyg’ular” o’ylari, “Jinoyatning uzun yo’li” risolasi chop etildi. Tohir Malikka “O’zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni berilgan (2000). Mustaqillik yillarida eng ko’p adadda kitob chop ettirgan Tohir Malikdir. hozir “Sharq” NMAK Bosh tahririyatida muharrir.

### HALIMA XUDOYBERDIYEVA



Halima Xudoyberdiyeva 1947-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tug’ilgan. Otasi – Ummatqul Xudoyberdi o’g’li bog’bon edi. Onasi – Sarofat Xonnazar qizi bo’lajak shoira ikki yoshligida vafot etadi, shundan so’ng unga xolasi Qarshigul Xonnazar qizi onalik qiladi. O’rta maktabni tugatib, 1968-1977-yillarda Moskvadagi

Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutining Oliy kurslarida o’qigan, 1985-yildan boshlab salkam 10 yil mobaynida “Saodat” oynomasining bosh muharriri lavozimida ishladi.

Uning ijodi 60-yildardan boshlangan bo’lib, hozirgacha yigirmaga yaqin she’riy, publitsistik asarlar to’plami nashr etilgan. Uning birinchi she’riy to’plami «Ilk muhabbat» 1969 yilda nashr etildi. Shundan so’ng «Oq olmalar» (1973), «Chaman» (1974), «Suyanch tog’larim» (1976), «Gordost» (1976), «Bobo quyosh» (1977), «Issiq qor» (1979), «Beliye yabloki» (1980), «Sadoqat» (1983), «Muqaddas ayol» (1988), «Yuragimning og’riq nuqtalari» (1991) kabi she’riy, publitsistik asarlar to’plami chop etildi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyatinnng mavzu va ma’no ko’lami nihoyatda keng va chuqurdir. Uning she’rlarida go’dak, ayol, ota-ona, yer-suv, tabiat va tog’u tosh va qushlar taqdiri, ularning yashash tarzi, tabiati, holati ifodalanadi desa bo’ladi. Yaxlit holda inson, tabiat va janiyat muammolarining deyarli barcha ko’rinishlari shoirani hayajonga soladi. Tuproq, ona yer va inson taqdiri bir butunlikni tashkil etadi. Shu boisdan ham u bir she’rida «Men shu tuproq kuychisiman» deb g’ururlapadi. Eng muhimi, shoir nima haqida, kim to’grisida yozmasin, ko’pincha ichki yoki tashqi, ruhiy holatlarni chizishdan ko’ra, o’y-mushohadalar ziddiyatlarini chizishga ishtiyoq kuchli. Shu boisdan bo’lsa kerak, shoirani mushohadanavis adiba ham deyishadi. Mana shu holat va she’riyatidagi soddalik, samimiylik kitobxonni ham o’ziga jalb etadi:

*O'quvchim, to 'kildi og'u bilan bol,  
Men she'r deb atadim uning otini.  
Hayajonli kunlar mevasini ol.  
Ol, uyqusiz tunlar mukofotini.*

«Yuragimning og'riq nuqtalari» to'plamiga kirgan barcha asarlarida zamonamizning eng dolzarb muammolari haqida mushohada yuritiladi. Ularda Ona, Ayol, Ezgulik, Bolalik va Kelajak bosh qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Halima Xudoyberdieva faqat otashnafas shoira, publitsistgina emas, mohir tarjimon sifatida ham barakali ijod qilmoqda. Xususan, uning Fazu Alieva, Silva Kaputikyan, Ibrohim Yusupovlardai qilgan tarjimalari e'tiborlidir. Atoqli adiba Zulfiya so'zlari bilan aytganda, Halima «Tuyg'u, o'ylar, toshqin hislar» bilan to'la she'riyat ijodkoridir. Unga «Muqaddas ayol» she'riy to'plami uchun 1990 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. 1992 yilda esa O'zbekiston Respublikasi xalq shoirasi degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

1990-yilda «Muqaddas ayol» to'plami uchun Hamza nomidagi Davlat mukofoti, 1991-yilda esa «O'zbekiston xalq shoirasi» unvoni berildi. Shoiraning she'rlari «Gordost» (1976), «Beloje yabloko» (1979), «Reshimost» (1985) nomli to'plamlari Moskva va Toshkentda bosilgan. Shoiraning «Ilk muhabbat»- ilk to'plami (1969), «Oq olmalar», «Chaman», «Suyanch tog'larim» (1991), «Bu kunlarga yetganlar bor» (1993) kabi bir qancha she'riy to'plamlari bor

## **TOG'AY MUROD** **(1948-2003)**



Tog'ay Murod (Mengnorov) o'zbek milliy adabiyotining noyob vakilidir. U 1948 yili Surxondaryo viloyatining Denov tumani, Xo'jasoat qishlogida tug'ilgan. Shu qishloqdagi 43-o'rta maktabii 1966 yilda tugallab, o'sha yili Toshkent Davlat dorilfupunining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan. 1972 yilda universitetni muvaffaqiyatli tamomlagach, respublika radiosi «Vatandoshlar» tahririyatida bo'lim muharriri bo'lib, 1970 yilgacha xizmat qilgan.

1976—1978 yillarda esa «O'zbekiston fizkulturochiligi ro'znomasida tarjimon, 1982—1984 yidlarda «Fan va turizm» oynomasida bo'lim muharriri bo'lib ishladi. 1985—1987 yillarda Moskvada M. Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti oliyog'ida tahsil olib qaytdi.

Yozuvchi o'z ijodini 1976 yili «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi bilan boshladi. Bu qissa o'zbek adabiyotiga tug'ma iste'dod egasi kirib kelayotganidan darak berdi. Qissada Bo'ri polvon, Tilovberdi, Abil polvon obrazlarida o'zbek milliy kurashi badiiy ifodasini topdi. Adibning 1979 yilda bitilgan «Ot kishnagan oqshom» qissasi bu umidni chinakam haqiqat, ishonchga aylantirdi. Asar bosh qahramoni Tarlon ot kitobxon qalbiga qadrdon bir odamday kirib bordi. Asar nohaq tanqidga ham uchradi.

Yozuvchining 1980 yili chop etilgan «Oydinda yurgan odamlar» qissasi adibninggina emas, o'zbek milliy adabiyotining noyob namunasi bo'ldi. Qissa qahramonlari Qoplon va Oymomo farzand orzu-ilinijida kun, oy, yillarni bir-biriga ulab yashashadi. Hali tug'ilmagan bolaning bobosi, momosi bo'lib zurriyotni, bir-birlarini ardoqlashadi. Asar qahramonlari fojeasi umid va yorug'likka to'la mungli, hazin qo'shiq qilib kuylanadi. Togay Murodning 1985 yili bitilgan «Momo yer qo'shig'i» qissasi o'z g'oyasi, adabiy yo'nalishi bilan o'zga qo'shiq-qissalaridan ajralib turadi. Povestda milliy zamindan oyog'i uzilgan, Vatan tuprog'ida yashab, yuragida yurt tuyg'usi bo'lmagan 80-yillar mafkura qurbonlari «qahramonlari» obrazlari G'arb adabiyoti sig'indi bandasi bo'lib qolgan ijodkor misolida o'zbekona kinoya bilan tasvir etiladi.

Ijodkor iste'dodli tarjimon hamdir. U 1974-1975 yillarda J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va ko'pgina hikoyalarini o'zbek tiliga ag'darib nashr ettirdi. 1989 yili E.Seton-Tompsonning hayvonlar haqidagi mashhur «Yovvoyi yo'rg'a» kitobini mahorat bilan tarjima qildi.

Togay Murod 1986—1992 yillar davomida o'zining ilk romani «Otamdan qolgan dalalar» asarini bitdi. «Otamdan qolgan dalalar»—ramziy roman. Unda butun umr ketmon chopib, mustamlaka yurtda kosasi oqarmay kelgan o'zbek xalqi siymosi Dehqonqul obrazi timsolida tasvir etiladi.



## USMON AZIM (1950)



Iste'dodli shoirlardan biri Usmon Azimovdir. U 1950 yili Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. 1972 yilga kelib Toshkent Davlat dorilfununini tugatgan. So'ngra sobiq Sovet Armiyasi saflarida xizmat o'tagan. U dastavval jurnalist sifatida Respublika radiosida, bir qator ro'znoma va oynomalarda, nashriyotlarda faoliyat ko'rsatgan. Hozirgi kunda esa Respublika Prezidenti devonida Davlat maslahatchisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Usmon Azimov shoir sifatida 70-yillarda matbuotda ko'rina boshlagan. 1978 yilga kelib, shoirning birinchi to'plami «Insonni tushunish» nomi bilan nashr bo'lgan. Shundan so'ng uning ketma-ket «Holat» (1979), «Oqibat» (1980), «Otrajeniye» (1983) kabi she'riy to'plamlari chop bo'ladi. «Bir qadam» nomli radiodramasi, bolalar uchun «G'aroyib ajdaho» (ertak), «Bog'dagi bog'cha» kabi bir qator asarlari paydo bo'ladi. Shuningdek, «Dars» (1987), «2 aprel» (1988), «Baxshiyona» (1988), «Uyg'onish azobi» (1991) singari she'riy to'plamlarni yaratadi. U yaratgan o'nlab she'rlar, dostonlar faqat mavzu, janr va uslub jihatidan emas, balki jo'shqin, shiddatli va ayni chog'da beg'uborligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, uning asarlarida hayotdagidek kuchli dramatism va fojeaviylik o'quvchini hayajonga tortadi. Eng muhimi, uning she'r va dostonlarida ona Vatan ishq, ona xalq tashvishlari, kelajak muammolari goh zamonaviy mavzularda, goh tarixiy-qiyosiy tarzda, goh folklor an'analari ruhida o'zining chuqur realistik ifodasini topadi. Ha, shoir o'zi haqida aytganidek:

*O'ynoq-o'ynoq, og'ir-og'ir oqmoqda umrim.*

*Goh ko'z yumib, goh ufqqa botmoqda umrim.*

*Bor jonini sadqa aylab she'rga, qo'shiqqa,*

*Siz yo'qotgan sururlarni topmoqda umrim.*



## FARIDA AFRO'Z

Farida Afro'z 1956-yil Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1994-yildan buyon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Uning "Qirq kokilligim" (1986), "Iztirob ko'ylagi"(1990), "Tunlar isyoni" (1994), "Ko'zim mani"(1999), "O'zimdan o'zimgacha"(2000),

"Ushshoq" (2004) she'riy to'plamlari o'quvchilar tomonidan sevib o'qib kelinmoqda.

*Mening sochim qaro edi, qarolarga boyladilar,  
Adolarga, sazolarga, jazolarga boyladilar.*

*Yetti osmon, yetti iqlim, yetti qabat zamin aro,  
Maloiklar, farishtalar, sabolarga aylandilar.*

*Tilimning bolimi yoki yuzimning xolimi yoxud,  
Bu ikki xol ila boshim balolarga boyladilar.*

*Hamma istar bu ochunda, faqat bir yor, faqat bir yor,  
Hamma "Yorman!" dedi, ammo, xatolarga boyladilar.*

*Senga jonni qilib qurbon Farid Afro'z qilur faryod,  
Jism xoku bu xayli dun matolarga boyladilar.*

## Hozirgi yoshlar ijodi



## ZEBO MIRZAYEVA

Zebo Mirzo 1964 – yil Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida dunyoga keldi.

1971 – 1981 – yillarda O`rta maktabda tahsil oldi. O`rta maktabni bitirib, 1982 – 1987 – yillarda ToshDU (hozirgi O`zbekiston Milliy Universitetining) "O`zbek filologiyasi" fakultetida tahsil oldi.

1987 – 1989 yillarda Kitob tumanidagi maktablarda "Ona tili va Adabiyoti" fanidan 1989 – yildan beri Toshkent shahridagi Nashriyot, Gazeta va jurnallar tahririyatlarida ishlaydi. Hozirda O`zbekiston

Televideniya "Assalom O'zbekiston" tonggi dam olish dasturining maxsus muhbiri vasifasida ish yuritadi.

*Alla sog'inchi*

*Yuragimning ostidami,  
Yo ko`kda, tun pallasi  
Sarvi suman soyasida,  
Hurlar aytar allasin  
Malalarning qanotida  
Nurday uxlar bir go`dak,  
Eshitgandek bo`laman  
Shirin – shirin nafasini.*

*Ko`zlaring qorasinda  
Yulduzchalar miltirar...  
Nomin aytsam, qalqib – qalqib,  
Tanda jonim qaltirar  
Yeru osmon orasinda  
Ne mo`jiza, ne tilsim.  
Qodir Olloh, bu tilsimni  
Dunyoga kim keltirar?*

*Orzumidi, armonmidi,  
Hayolmidi, tush ko`rdim?  
Kun chiqarga kulib boqdim,  
Shunqor degan qush ko`rdim  
Malaklarning qanotida  
Nurday o`xlar bir go`dak,  
Eshitganday bo`laman  
Shirin – shirin nafasini...*

*Samotog`dan boshin egib  
Asta kelar bir yigit  
Sandoqida o`qi bor  
Qo`llarini bo`sh ko`rdim.*

*Ovga otgan o`qining chin  
Donasi men bo`layin  
Uzoqlardan asrab kelsa,  
Yonasi men bo`layin.  
Yo`llariga boshim qo`yib  
Yolvoraman, Xudoyim  
Shu yigitga bir o`g`il ber,  
Onasi men bo`layin...*

*Yuragimning ostidami,  
Yo ko`kda tun pallasi.  
Sarvu suman soyasida  
Xurlar aytar allasin,  
Men odam emasman!  
Men bir ojiza –  
Men axir Havvoman,  
Havvoman, Hudo!*

## XOSIYAT RUSTAMOVA



Xosiyat Rustamova 1971-yilda Namangan viloyati, Chust tumani, Olmos qishlog'ida tavallud topgan. 1988-1993-yillarda ToshDU (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetida tahsil olgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. She'rlari ko'p tillarga tarjima qilingan.

Uning "Osmondagi uy" (1997-yil), "Najot" (2003-yil), "Rido" (2004-yil), "Devor" (2006-yil), "Avgust" (2007-yil) she'riy to'plamlari mavjud bo'lib, she'rlari bugungi o'quvchilar tomonidan sevib o'qilmoqda.

"Yurak qoni bilan yozilgan she'r qisqri bo'ladi" ,,-deb yozgan edi adib Asqad Muxtor. Darhaqiqat, shoira Xosiyat Rustamovaning she'rlarini o'qir ekanmiz, buni chuqur his qilamiz.

*Mashinaning orqa o'rindig'ida,  
Betartib xonaday xayolim uyqash.  
Oynaga qadalgan ko'zim yig'ida-  
Yurakni o'rtaydi allaqanday rashk.  
Xudoga borayapman o'zimni ortib,  
Buncha ham go'zalsan yam-yashil chiroq!  
Mening diqqatimni o'ziga tortib –  
Haydovchi ko'zgudan tashlaydi nigoh.  
O, shu payt...  
Kimlardir kuldi-kinoya!  
Qaradim.  
Yo'llarni supurar farrosh.  
Qizil chiroqlarga qilmas rioya,  
Mening ko'zlarimdan oqayotgan yosh.*

## GULJAMOL ASQAROVA



Guljamol Asqarova 1978-yil 5 - mart kuni Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Beshdarg'at qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi. "Dil fasli", "Ro'shnolik", "Bedor qo'ng'iroq", "Baxt dastxati" nomli she'riy kitoblari nashr etilgan.

### *Qadri tugagan sevgi haqida*

*Azal shundoq: topishmoq qiyin,  
Abd shundoq: ajralmoq oson.  
Men sen bilan xayrlashaman,  
Endi yordam bermaydi osmon.*

*Ko'zlaringni unutdim mana.  
Meni xayol avradi zimdan.  
Yillar hukmin o'tkazdi yana,  
"O'chdi aziz siymong yodimdan".*

*Bildim, yana angladim oxir,  
Ishq bu nurdir, men nursiz ado.  
Sen sevmasang qiyomatmi ayt,  
Axir meni sevadi Xudo.*

*Endi menga aziz emassan,  
Ko'rganida quvonmas ko'zim.  
Sen-la borib bo'lmas Xudoga,  
Va...  
Qiblaga o'xshamas yuzing.*